

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**АЛИСҲЕР НАВОИЙ НОМИДАГИ САМАРҚАНД ДАВЛАТ
УНИВЕРСИТЕТИ**

Қўлёзма ҳуқуқида

УДК

АБДУКАРИМОВ АСЛИДДИН

**“ЎЗБЕК ТИЛИДП ЙИҒИ АМАЛИНИ ИФОДАЛОВЧИ
ЛЕКСИК-СЕМАНТИК БИРЛИКЛАР”**

Магистр

Академик даражасини олиш учун ёзилган диссертация

Иш кўриб чиқилди ва

**Илмий раҳбар:
проф.Йўлдошев Б.**

ҳимояга рухсат берилди.

Ўзбек тилшунослиги

кафедраси мудири:

Проф.Абдуасанов А.

Илмий раҳбар:

ПРОФ. Йўлдошев Б

Самарқанд-2012

REJA

KIRISH:

- a) o'zbek tilshunosligida leksik-semantik guruh (LSG)larni o'rganish sohasida amalga oshirilgan ishlar haqida;
- b) "yig'i" psixik-fiziologik amali va uni ifodalovchi LSG haqida umumiy tushuncha;
- v) yozuvchi Abdulla Qodiriy ijodi va uning "O'tkan kunlar" romanining o'rganilishi haqida;
- g) malakaviy bitiruv ishining maqsad va vazifalari.

BIRINCHI BOB

O'ZBEK TILIDA "YIG'I" AMALINI IFODALOVCHI LEKSIK BIRLIKLARNING FUNKSIONAL-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

1. Alisher Navoiyning "yig'i" amalini ifodalovchi leksik birliklar haqidagi qarashlari.
2. "Yig'i" holatining baland ovoz bilan kechishini bildiruvchi leksik vositalarning funksional-semantik xususiyatlari.
3. "Yig'i" holatining ovozsiz kechishini bildiruvchi leksik vositalarning funksional-semantik xususiyatlari.
4. "Yig'i" holatining kuchli g'am-hasrat bilan kechishini bildiruvchi leksik vositalarning funksional-semantik xususiyatlari.

IKKINCHI BOB

O'ZBEK TILIDA "YIG'I" AMALINI IFODALOVCHI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING FUNKSIONAL-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

1. "Yig'i" holatini ifodalovchi frazeologik birliklar haqida umumiy tushuncha.
2. "Yig'i" holatini ifodalovchi frazeologik birliklarning muallif nutqida qo'llanish xususiyatlari.
3. "Yig'i" holatini ifodalovchi frazeologik birliklarning personajlar nutqida qo'llanish xususiyatlari.

UMUMIY XULOSALAR.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

SHARTLI QISQARTMALAR.

ILOVALAR:

1. "O'tgan kunlar" romanida qo'llangan "yig'i" amalini ifodalovchi leksik birliklarning qisqacha alifbo ko'rsatkichi.

2. "O'tgan kunlar" romanida qo'llangan "yig'i" amalini ifodalovchi frazeologik birliklarning qisqacha alifbo ko'rsatkichi.

KIRISH

O'zbek tilshunosligida leksik-semantik guruh (LSG) larni o'rganish sohasida amalga oshirilgan ishlar bir qanchani tashkil etadi. Bu ishlarda prof.Qo'chqortoyevning "so'z ma'nosi va uning valentligi" kitobida o'zbek tilida nutq fe'lari izohi hamda lug'aviiy birlik va uning ta'rifi, lug'aviiy birlik semantikasi, leksik ma'no va uning mohiyati, o'zbek tilidagi nutq fe'llari semantikasi tahlil etiladi.

Bir guruh olimlarning fikricha, til birligi bo'lgan fonema nutqda konkret tovushlarda (variantlarga) reallashgani kabi so'z ma'nosi (umumiy ma'no) ham nutqda o'ziga xos variantlarga reallashadi. Masalaning bunday qo'yilishi ikki hodisani o'zaro farqlashni taqozo etadi:

1) Umumiy ma'no 2) umumiy ma'noning variantlari.

So'z ma'nosini bunday tushunish polisemiyaning rad etadi. Bu nuqtai nazarga muvofiq, asosiy ma'no, to'g'ri ma'no, ko'chma ma'no, kabi terminlar real hodisalarni bildirmaydi. So'z bunday ma'nolarda ega emas. So'z bir qancha ma'noga ega bo'lmaydi.—deb yozadi V.A.Zveginsev.— so'z ma'nosida muayyan umumlashtirish natijasi mustahkamlanar va bu umumlashtirish protsessi tilning igrp hayoti va taraqqiyoti davomida to'xtamas ekan, bir so'zda bir nechta yo'nalishdagi umumlashtirish parallel amalga oshishi mumkin emas. Shuning uchun so'zda birdan ortiq ma'no ham yuzaga kelmaydi. Chunki, A.V.Zveginsevning fikricha, polisemiya hosil bo'lishi uchun so'zda birdan ortiq yo'nalishdagi umumlashtirish parallel amalga oshishi shart. "So'z ma'nosi bir qancha potensial tipik birikuvlardan tashkil topishi mumkin" — deb yozadi. A.V.Zveginsev — bunda mazkur potensial tipik birikuvlar so'zning yagona ma'nosini turli tomondan tavsiflaydi. V.A.zvegensev so'zning potensial tipik birikuvlarini so'zning leksik-semantik variantlari deb ataydi. So'zning leksik-

semantik variant tushunchasi tilshunoslikdagi leksik ma'no tushunchasiga to'g'ri keladi. Masala bunday qo'yilganda so'zning turli leksik-semantik variantlari orasidagi munosabat haqida emas, balki, umumiy ma'no va uning variantlari orasidagi munosabat haqida gapirish o'rinli bo'ladi. So'zning leksik-semantik variantlarida mazkur so'z ko'rsatadigan turli predmet va hodisalarning o'ziga xos va shu bilan bir qatorda umumiy xususiyatlari ifodalanadi. Shu tariqa so'zda turli predmetlarning "umumiy xarakteristikalar" yig'iladi va bu xarakteristikalar shu so'zning leksik ma'nosida umumlashdi. Demak, so'zning leksik ma'nosi shu so'z tomonidan ko'rsatilgan predmet va hodisalarning umumiy xususiyatlari inikosidan tashkil topadi. Bundan shu narsa anglashiladiki, so'zning leksik-semantik variantlari real hodisalar bo'lib, umumiy ma'no abstrakt, mavhum hodisadir. Umumiy ma'noning abstrakt, mavhum hodisa ekanligini V.A.Zveginsev alohida ta'kidlab ko'rsatadi. Bu mulohazalardan ko'rib chiqadigan prinsipial xulosa shundan iboratki, leksik-semantik variant termini ob'yektga ya'ni tilga tegishli empiric hodisaning nomi bo'lsa, umumiy ma'no termini nazaryaga, obyektini (tilni) tushuntirish yo'siniga tegishli konstrukt hodisaning nomidir.

Leksik-semantik variant termini tilda ko'rsatiladigan, o'rganiladigan real hodisalarning nomi bo'lgani uchun bu terminning mazkur hodisalar tabiatiga qanchalik mos kelish kelmasligiga bir muncha to'z talib o'tishni lozim topamiz.

Avvalo shuni ta'kidlash zarurki, leksik-semantik variant nazaryasiga so'z ma'nosiga taaluqli bo'lgan muhim bir masala juda sezgirlik bilan to'g'ri qayd etilgan. Bu – leksik ma'no bilan shu ma'no ifodasi bo'lgan leksemaning sintagmatik pozitsion o'ri orasidagi o'zaro taqozodorlik munosabati. Muayyan ma'nodagi so'z muayyan sintaktik pozitsiya ya'ni taqozo etgani kabi, muayyan sintaktik pozitsiya ham shu pozitsiyaga mos keladigan ma'nodagi so'zni taqozo etadi. Boshqacha qilib aytganda, sintaksis qanchalik semantik tabiatga ega bo'lsa, semantika ham o'z novbatida, shunchalik sintaktik tabiatga egadir. Leksik ma'noning bu xususiyatini to'g'ri ko'rsatgan A.V.Zveginsev so'z semantikasining structural harakatini tan olmaydi. Olimning yozishicha so'zning leksik-semantik

variantlari leksik ma'no nuqtai nazardan bir xil hodisalardir, ularning biri ikkinchisiga asoslanmaydi yoki biri ikkinchisidan kelib chiqmaydi. Mazkur variantlar so'z ma'nosining detallari, xususiyatlaridir. Shuning uchun so'zda leksik-semantik variantlarning bir-birlariga munosabati, bir-biriga ta'siri haqida gapirish o'rinsiz. Bu konsepsiyaga muvofiq so'z polisemiyasi haqida emas, balki faqat so'z monosemiyasi haqida gapirish lozim. Chunki so'zning leksik ma'nosi bitta bo'ladi. Lug'atlarda polisemantik ma'nolar sifatida izohlanadigan hodisalar bir umumiy ma'noning variantlari detallaridan boshqa narsalar emas¹.

Til strukturasi leksik-semantik sathi o'rganilgan ham, fonetik sathi o'rganilganda ham, sintaktik sathi o'rganilgan ham biz bu terminlardan keng foydalanamiz. Demak, bu temin ifodalaydigan hodisa (yani so'z) tilning asosiy yetakchi elementlaridan biri hisoblanadi. Lekin alohida olingan so'z kommunikatsiya amali ham, tafakkur vositasi ham bo'lolmaydi. So'z o'zining bosh ya'ni ekstralingvistik hodisalarini atash, ko'rsatish vazifasini faqat nutq amalida bajaradi. Shunday ekan, so'zning nutq amalida ishlatilishi, uning boshqa so'zlar bilan birikib kelishi tilshunoslikning asosiy masalalaridan biri sifatida qaralmog'i lozim. Shunday ekan, leksemani boron-bir matnda yoki badiiy asarda qo'llanilishi zahirida u anglargan semantik jihatiga katta e'tibor beriladi².

O'zbek tili so'z xaritasida fe'l turkumining o'zi bir olam. U lug'at qatlamining katta qismini tashkil etadi. Bu kategoriyaning grammatik va stilistik xususiyatlari juda murakkab va qiziqarli. Har qanday harakat holat va uning nozik etaplari, emotsiyasi obyektga obektiv borliqqa biror shaxsga bo'lgan modal ekspressiv munosabat bildiradi. Bu ishlarda prof.I.Qo'chqortoyevning "So'z ma'nosi va uning valentligi" kitobida o'zbek tilidagi nutq fe'llari izohi hamda lug'aviy birlik va uning ta'rifi, lug'aviy birlik semantikasi, leksik ma'no va uning mohiyati, o'zbek tilidagi nutq fe'llari samaradorligi tahlil etiladi.

¹ И.Кўчқортоев. сўз маъноси ва унинг валентлиги. Тошкент, 1977, 21-3 бетлар.

² Р.Расулов. Ўзбек тилидаги ҳолат феъллари ва уларнинг облигатор валентликлари. Тошкент. "Фан" нашриёти. 1989 йил.

O'zbek tilidagi holat fe'llari arxisema va differensial semaga ham egadir. Bu sema "holat" arxisemali va muayyan differensial semali holat fe'llarining ichki semantik guruhlari uchun umumiydir. Bu tip semalar arxisema bilan differensial semalar o'rtasida turadi, o'ziga xos informatsiya tashiydi. Bunday semalar manbaalarda integral sema sifatida qayd etiladi¹.

Integral semalar ham nisbiy bo'lib, differensial semalarga nisbatan hajm jihatdan keng ya'ni biror LSGga oid so'z ma'nolariga umumiy xos belgi – xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Ammo integral sema arxisemaga nisbatan hajm jihatdan torligi shuki, u faqat muayyan mikrosistemaga (semantik guruhga) oid leksema sememalari bilan bog'lanadi. Arxisema esa leksema sememasining hajm jihatdan eng katta mazmun jihatdan boy mantiqiy komponentdir².

Arxisemasi "holat" semali fe'larning har bir ichki LSGsi o'ziga xos integral semalarga ega bo'ladi. Bu integral semalar bir-biridan tovush materiyasi va mazmun planiga ko'ra farqli, ammo nomlash aspektidagina bir xillik kasb etadi.

Dixatomik prinsipiga ko'ra so'z sememalari dasavval umumiy va farqli semalarga bo'linadi. Umumiy sema o'z ichida arxisema va integraql semalarga differensial semaga nisbatan umumiy sema hisoblanadi. Integral sema ham dasavval arxisema sostavida bolib, analitik natijasida ajratiladi. Biri ikkinchisiga nisbatan qiyosan olinganda holat fe'llari sememasi arxisememasining umumiyligi keng planda, maksimal darajada bo'lib u o'zbek tili masshtabida holat fe'llariga xos indentifikatsiyalovchi sema sanaladi. Integral semaning differensial semaga nisbatan umumiyligi arxisema umumiyligiga nisbatan ikkinchi darajali hisoblanadi. Integral sema ham arxisemaga o'xshash ammo doimo arxisemadan so'ng yuzaga keladigan, aniqlanadigan arxisema ifodasining doirasini nisbatan toraytirib beradigan sema sifatida biror LSGni tashkil qiluvchi mikrosistemalarni aniqlaydi, integral semaning umumiyligi differensial semaga nisbatan birinchi

¹ Р.Расулов. Ўзбек тилидаги ҳолат феъллари ва уларнинг облигатор валентликлари. Тошкент. "Фан" нашриёти. 1987 йил, 5-бет.

² Р.Расулов. Образли ҳолат феъллари. Тошкент. "Фан" нашриёти. 1982 йил, 5-бет.

darajali bo'lib, (integrak sema) holat fe'llarining u yoki bu LSGlarini hosil qiladi¹.

Har qanday umumiylik xususiylikdan, alohidalikdan, ularning mantiqiy ichki bog'lanishidan yuzaga keladi va situatsiyaga qarab xususiylik sifatida, unga xos belgi-xususiyatlar esa xususiylik sifatida namoyon bo'ladi. Ular nisbiy mustaqillikka, alohidalikka egadir. "Holat" arxisemali fe'llarning mustaqilligini, alohidaligini taminlovchi, til va nutq birligi bo'lib izohlanishiga stimul beruvchi sema hisoblanadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, leksema sememalarning structural-semantik komponentlarini miqdor jihatdan chegaralash nisbiy xarakterga ega. Asosan diqqa e'tibor leksema semasining eng muhim xarakterli semalariga – differensial semalariga qaratiladi. Leksema semalarining semalar sostavida esa differensial semalar o'ziga xos xususiyatda – odatda bittadan ortiq bo'ladi. Bunday hollarda tekshirish obektining xarakteridan, talabidan, maqsadidan kelib chiqib, differensial semalardan eng zaruriysi, muhimi olinadi. Boshqasi potentsiya sifatida saqlanadi. Demak, holat fe'llarining semantik strukturasidagi muhim, zaruriy differensial semalarni aniqlash maqsadga muvofiqdir.

Holat fe'llarining arxisemasi "holat" integral va differensial semalardan konkretlashib, aniq ifodaga ega bo'ladi. Integral va differensial semalar smaning konkretlashtiruvchi struktur-semantik komponentlari sifatida arxisema bilan dialektik birlikni tashkil qiladi.

Arxisema, integral sema va differensial semalarning ifoda birliklari asosida tuzilgan sintaktik konstruksiyalar holat fe'li sistemasining izohi bo'ladi.

O'zbek ilidagi holat fe'llarini komponent e'tiboriga ko'ra tahlil qilishda bu semantik maydonning quyidagi LSGlardan tashkil topishi aniqlanadi.

1. Davomli holat fe'llari.
2. Harakat natijasi bo'lgan holat fe'llari.

¹ Р.Расулов. Ўзбек тилидаги ҳолат феъллари ва уларнинг облигатор валентликлари. Тошкент. "Фан" нашриёти. 1987 йил, 10-бет.

3. Ijro holati fe'llari
4. Harakatning holati fe'llari
5. Malaka holati fe'llari
6. Obzorli holat fe'llari
7. Biologik holat fe'llari
8. Fiziologik holat fe'llari
9. Psixik holat fe'llari

Qayd etilgan LSGlarda “holat” arxisema, “davomli”, “harakat natijasi”, “ijro”, “harakat”, “malaka”, “obrazli”, “biologik”, “fiziologik” va “psixik” kabi semantik komponentlar integral sema bo'ladi.

Anglashilishicha, o'zbek tilida holat fe'llarida rellyashuvchi logik subyekt holati davomli, harakat natijasi, ijro, harakatning holati, malaka, obrazli, biologik, fiziologik va psixik holat kabi ko'rinishlarda sodir bo'ladi.

Demak, obektiv borliqdagi turlicha holatlarni aks ettiruvchi holat fe'llari semantikasining murakkab xarakteri mantiqiy ravishda holat fe'llarining nazarda tutilgan 9 tipidan iborat semantik guruppalanishiga olib keladi. Biz bu LSG holat fe'llarining semantik valentliklarini tasvirlashda fe'l sememasidagi va reallashish darajasi kabilardan kelib chiqib, holat fe'llarining agens, kontragent, lokalis, obyekt adresat, va boshqa semantik valentliklarini aniqladik¹.

R.Rasulovning o'zbek tilshunosligida LSGlarni o'rganish sohasi bo'yicha qilingan ishlari o'ta muhimdir. Uning O'zbek tilidagi holat fe'llari va ularning obligator valentliklari” kitobida LSG sohasidagi tadqiqotida o'zbek tilidagi holat fe'llarining agens, lokalis va obyekt valentliklarigina yaratilgan. Chunki bu tip semantik valentliklar holat fe'llarining obligator valentligi sifatida alohida “qadrlanib” holat sememali fe'l leksemalar uchun birinchi darajali ahamiyati bilan ajralib turadi.

¹ Кўчқортоев И. Сўз валентлиги ҳақида. // Ўзбек тили ва адабиёти. 1973 йил, 3-сон, 34-38-бетлар.

b) O'zbek tilida psixik-fiziologik amalni ifodalovchi lisoniy vositalar orasida yig'i holatini bildiruvchi leksik-frazeologik birliklar ham alohida o'rin tutadi. Yig'i holatini bildiruvchi fe'llar va fe'l frazemalar birlashib, alohida leksik-semantik guruh (LSG) ni tashkil etadi. Bunday LSG tarkibiga kiruvchi birliklar ma'nosining o'ziga xos xususiyati shundaki, ular bildiradigan yig'i holati odamning qiynalish, azoblanishi natijasida oh-faryod chekish, nola qilish singari ruhiy kechinmalar bilan chambarchas bog'langan bo'ladi.

“Yig'i” haqidagi tasavvular inson dunyoqarasining o'ziga xos xususiyati bo'lgani uchun uni o'rganish falsafa, psixologiya, sotsiologiya tilshunoslik kabi bir qator ijtimoiy gumanitar fanlarning kompleks yondashuvini talab qiladi. O'zbek tilida ko'pincha “yig'i” yig'lamsiramoq, ho'ng-ho'ng yig'lamoq, dod solmoq, ohu nola chekmoq, ko'chidan shashqator yosh to'kmoq kabi so'zlar yordamida ifodalanadi. Bu so'zlarning etimologiyasini, lug'atlardagi leksikografik talqini, “O'tkan kunlar” romani matnidagi funksional semantik xususiyatlarini ko'zdan kechirish orqali ularning “yig'i” amalini ifodalashdagi o'ziga xos xususiyatlarini ko'rib chiqamiz.

“Yig'i” so'ziga besh jildlik “O'zbek tilining izohli lug'ati” da quyidagicha izoh berilgan. “g'am-alam, og'riq, iztirob va shu kabilar tufayli yuzaga keladigan ruhiy holatning ko'z yosh, o'ziga xos tovush bilan kuzatiladigan ifodasi. Shunday holat bilan yuzaga keladigan ko'z yoshi, tovush” (O'TIL II 272-bet).

Azoblanayotgan yig'i holatini ifodalovchi fe'llarning ma'noviy yadrosini yig'lamoq fe'li tashkil etadi. Yig'lamoq fe'li (umuman yig'i holatini ifodalovchi fe'llarning barchasi) amaliy-ma'noviy jihatdan bir valentli modelga ega¹. Bunday

¹ Юнусова Д. Ўзбек тилида йиғи ҳолатини ифодаловчи лексик-фразеологик birliklar ҳақида. // тил ва адабиёт таълими. 2010 йил. 6-сон, 22-30 бетлар.

fe'llarning yagona valentligi, agns valentligi bo'lib, ular nutqiy jarayonda shaxs nomlari o'rnida qo'llanuvchi boshqa turkumga oid so'zlar yordamida reallashadi.

Masalan, Biz endi shunday qolaveramizmi, agar zolimlar... -dedi-da Kumush so'zining oxirini aytmay yig'lab yubordi. (A.Qoiriy "O'tkan kunlar" 77-bet) kabilar.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida yig'i holatini umumiy tarzda ifodalashda ko'proq yig'lamoq fe'lidan foydalaniladi. Bu fe'l shu semantik guruhga kiruvchi boshqa fe'llarga nisbatan informative jiyatdan sayoz, mavhum so'z sanaladi. Nutq jarayonida bu so'z yig'i holatini ko'proq qayd qilish uchun qo'llanadi. Shunga ko'ra bu fe'l yig'i holati haqida qo'shimcha emotsional-ekspressiv xususiyatlarni o'zida aks ettirmaydi. Shunga ko'ra bizningcha yig'lamoq fe'li shu semantik guruh doirasida boshqa so'zlar uchun doinanta deb baholash o'rinlidir

Negaki, bu fe'l o'zi ifodalagan amal, yig'i sinfiga mansubligini bildiradi. Lekin bu amal to'g'risidagi qo'shimcha ma'lumotlar emotsional-uslubiy nozikliklar matn tarkibida boshqa verbal va noverbal vositalar yordamida ifodalanadi.

O'zbek tilidagi holat fe'llarining semantik valenligini obligator valentliklarini yoritishdan avval holat fe'llari uning ichki leksik semantik gruppalari haqida fikr yuritish, ularni aniqlash maqsadga muvofiqdir. Chuinki, turkey tilshunoslikda holat fe'llari semantik maydoni shu vaqtgacha konkret ajratilgan emas, holat fe'llari o'z ichida mukammal tasnif qilinib, alohida ilmiy tekshirish obyekti bo'lan. Vaholanki, sovet tilshunosligida fe'l kategoriyasi haqida fikr yuritilgan manbaalarning deyarli barchasida harakat fe'llari bilan parallel ravishda holat fe'llari ham alohida tilga olinadi. Ularning o'ziga xos xususiyatlariga egaligi ta'kidlanadi¹.

O'zbek tilidagi holat fe'llari obyektiv asosiga ko'ra tabiat va jamiyatdagi o'simliklar va hayvonot olamidagi, inson biologiyasi, fiziologiyasi va psixikasi

¹ Р.Расулов. Ўзбек тилидаги ҳолат феъллари ва уларнинг облигатор валентликлари. Тошкент. "Фан" нашриёти. 1987 йил, 12-бет.

bilan bog'liq muayyan jarayonlarni o'z ichiga oladi. Demak, holat fe'llari moddiy asosiga ko'ra kengligi va murakkabligi, materiyaga xos turlicha holatlarni o'ziga "joylashtirish" bilan boshqa semantik maydonga kiruvchi fe'l leksemalarda ajralib turadi.

Holat fe'llari ma'nosida reallashuvchi holat muayyan logik subekt doirasidagina sodir o'lishi, undan tashqariga chiqmasligi, unda qolish bilan xarakterlanadi. Holat fe'llari holat ifodalaydi, kimdir (nimadir) muayyan holatda bo'ladi.

Holatning realligi, obektivligi, uning muayyan shaxs yoki predmetda 'to'planish', unda "moddiylashishi" bilan bog'liq ekan, demak logik subyektning mavjudligi faqat uning absalyut harakati bilan emas, balki, uning "absalyut" holati bilan ham o'lchanadi.

Aniqrog'i, holat ham materiyaning yashash formasidir. Ammo holat nisbiyligi bilan, harakat esa, absalyutligi bilan ajralib turadi. Fe'l sememasidagi logik subyekt holati qanchalik davom etmasin, qanchalik real turlicha, "prespektivali" bo'lmasin u nisbiydir. Uning nisbiyligi absalyutdir. Chunki, har qanday holat asosida harakat mavjuddir. Ammo bu harakat ko'zga real tashlanmasligi hamda yashirinligi bilan xarakterlanadi. Demak, holat fe'llarida ifodalangan holat, holat akti, holat o'zgarishi logik subyektning ichki holat yuz bergan holat akti, holat o'zgarishi logik sub'yekt harakat natijasi sanaladi. Tilshunos Sh.Balli ta'kidlaganidek, "holat bir tomondan bevosita harakat ketidan ergashuvchi sifatida idrok qilinadi. Aytilganlardan kelib chiqib, holat fe'li reallashgan holat harakatga nisbatan passiv akt bo'lsa-da, uni ham protses sifatida tushunish logik filosofik to'g'ri bo'ladi. Shunga ko'ra manbalarda bu mustaqil so'z turkumi bo'lib predmetning harakat va holatini protsess sifatida ifodalovchi so'zlarni birlashtiradi deyiladi.

Obyektiv borliqdagi narsa-predmetlarga shaxsga, hayvonga xos turlicha holatlarni ifodalovchi holat fe'llari nutqda aktiv ishlatilishi va murakkab semantik strukturasi bilan ajralib turadi. Holat fe'llari sememasining arxisemasi holat olib

holat fe'llarini bir makrosistemaga biriktiradi. Chunki, arxisema xarakteridagi holat fe'llarining semantik maydoni yuzaga keladi. Demak, arxisema leksemasining mohiyatini ifodalaydi¹.

O'zbek tilidagi holat fe'llari arxisemadan boshqa differensial semalari bilan ham xarakterlanadi. Bu tabiiy chunki, holat fe'llari muayyan differensial semalarga ko'ra nutqda konkret denotativ ma'noga umumiyliklar, nisbiy ajratishga ega bo'ladi².

Differensial semalar holat fe'llarining avtonomligini ko'rsatuvchi semantik belgi sifatida xizmat qiladi. Ularda leksema sememasining o'ziga xos belgisi emotsional, ekspressiv ottenkasi, nutqiy xoslanishi aks etadi. O'zlik nisbatli holat fe'llarining ham agens valentligiga ega bo'ladi.

Yoshlanmoq fiziologik holat fe'lning agens kishi va hayvon organida reallashadi. ³ *O'qchib yoshlangan ko'zlari bilan eriga qarab oldi* ("O'tkan kunlar" 374 bet)

Yoshlamoq, namlanmoq, fiziologik ezilmoq, psixik holat fe'llari aslida usual harakat ma'noli nomlamoq, ezmoq, yoshlamoq, leksemalariga –n va –il formantlarining birikishidan, nutqiy holat ma'nosi ham reallashadi.

Ya'ni –n va –il formatlari o'zining tipik semantik funksiyasidan tashqari til sememasida "holat" sememasini ham hosil qiladi. Bunday tilda ifodalangan holatda kishi organi inson bo'ladi. Masalan:

Sintaktik konstruksiyalarda yoshlanmoq va namlanmoq fiziologik integral semali holat fe'llari o'zlik nisbatli so'z formasida ham aniqlovchi funksiyasida keladi. Bu holatda ularning aniqlanmish pozitsiyasidagi agens kishi organi ayni vaqtda holat yuzaga kelgan obyekt ham bo'ladi.

¹ Расулов Р. Давомли ҳолат феълларининг семантик-структураси . Ўзбек адабий тили тараққиёти масалалари. ТДПИ илмий тўплами. Т. 1982. 26-бет.

² Расулов Р. Образли ҳолат феъллари. Тошкент. 1982. 5-бет.

³ Р.Расулов. Ўзбек тилидаги ҳолат феъллари ва уларнинг облигатор валентликлари. Тошкент. "Фан" нашриёти. 1987 йил, 25-бет.

Aniqllovchi funksiyasidagi yig'lamsiramoq fiziologik, psixik integral semali holat fe'llarining aniqlanmish pozitsiyasidagi agnsi tovish bo'ladi: *Otabekning ko'magi bilan yig'lamsiragan ko'yi narvonchadan aravaga mindi va soyabon orqali oldinga o'tdi.* ("O'tkan kunlar 335 bet).

Demak, atributiv formadagi "fiziologik" va "psixik" integral semali holat fe'llarining aniqlanmish pizitsiyasidagi agensi tovushidir.

O'zbek tilidagi holat fe'llarining agens valentligi bobida yuritilgan fikrlarni umumlashtirib, aytish mumkinki, holat fe'li va ko'pincha ufe semalarining bog'lanishidan tuzilgan semantik sintagmalar til semantik sistemasining asosi, mohiyati bo'lib gapning semantik strukturasini tashkil qiladi. Yig'lamoq fe'li bir valentli modelga ega o'lganligi uchun bu xususiyat yig'lamoq fe'lining matnda asosiy ma'noda qo'llanilishini taminlaydi.

Hozirgi o'zbek tilida yig'lamoq fe'li ayrim o'rinlarda "kimningdir nimagadir ko'ndirishga urinmoq" ma'nosini ifodalashi ham mumkin. Bunday holatda yig'lamoq fe'li yalinmoq, yolvormoq kabi fe'llar bilan bir LSGni tashkil qiladi.

Bu LSG tarkibiga kiruvchi fe'llarning semantik valentliklaridan biri adresat valentligidir¹. Shuning uchun yig'lamoq fe'li yalinish-yolvorish holatini bildirish maqsadida qo'llanganda bu fe'l boshqaradigan so'zlar qatoriga adresat valentligining variantlari ham qo'shiladi.

Shunday qilib bizning dastlabki tahlillarimiz asosida xulosaga kelish mumkinki, tilimizda yig'i holatini ifodalovchi fe'llar va ayrim frazemalar ham alohida konsept tarkibiga birlashadi va yaxlit holda bir umumiy LSGni tashkil etadi, ularning ma'noviy strukturasida yig'i holati bilan bog'liq holda ko'plab qo'shimcha ma'no qirralari ham ifodalanadi. Yig'i holatini ifodalovchi fe'llar va frazemalar tilimizning boyligini o'ziga xos ma'noviy imkoniyatlariga egaligini til va nutq asosidagi dialektik munosabatni ifoda etadi. Bunday holat, ayniqsa, badiiy va publisistik uslubga aloqador matnlarda yorqinroq namoyon bo'ladi.

¹ Р.Расулов. Ўзбек тилидаги ҳолат феъллари ва уларнинг облигатор валентликлари. Тошкент. "Фан" нашриёти. 1987 йил, 36-бет.

v) Yozuvchi A.Qodiriy ijodi va uning “O’tgan kunlar” romanining o’rganilishi haqida;

O’zbek adabiyotining yirik namoyondalaridan biri A.Qodiriy 1894- yil 10-aprelida Toshkent shahrida tug’ilaadi.

“Har holda bemovridroq bo’lsa kerak, kambag’al, bog’bonlik bilan kun kechirguvchi bir oilada... tug’ilg’anman”— deydi. U o’z tarjimai holida, - Yoshim to’qqiz-o’nlarga borgandan so’ng meni maktabga yubordilar. Maktabda ikki-uch yil chamasi eski usulda o’qib, keyingi vaxtlarda oilamizning nihoyatda qashshoq kun kechirgani vajhidan o’n ikki yoshimda meni bir boyga xizmatchilikka berdilar. Xo’jaynim o’zi bir savdogar kishi bo’lib, o’zicha yozuv- chizuv bilaturg’on odang’a muhtoj edi.

Shu ta’ma bo’lsa kerak, meni o’ris maktabga yubordi... 1912-yilda maktab bialn savdo qiluvchi, bir kishig’a yilig’a 50 so’m barobariga prikarchik bo’lib kirdim... Shu miyonalardan biror vosita bilan tatarlardan chiqadurg’on gazetalarni o’qub, dunyoda gazeta borlig’iga imon keltirdim.

1913-yilda o’zbekcha “Sadoi Turkiston”, “Samarqand”, “Oina” gazetalari chiqa boshlag’ach, menga shularga gap yozib turish fikri uyg’ondi... 1913- yilda chiqqan “Padarkush” ta’sirida “Baxtsiz kuyov” degan teatr kitobini yozib yuborganimni o’zim ham payqamay qoldim (1915). Yana shu yilda teatrlarda chiqib turg’on hikoya va romanlarga taqlidan “Juvonboz” otliq hikoyachini yozib, nashr topmog’onidan, o’zim nashr qilib yubordim. Nikolay taxtdan yiqilg’andan keyin oddiy xalq militsiyasiga ko’ngilli bo’lib yozildim...

1918-yil boshlarida eski shahar oriq komiteti boylar qo’lidan olinib, komitetning raisligiga o’rtoq Sultonxo’ja Qosimxo’jayev tayin qiling’an edi. Va

men o'zbekcha sarkotiblig'iga kirdim.1919-yilning avvallarida oriq komitetinin ismidan chiqarlimoqchi bo'lgan "Oziq ishlari" gazetasiga muharrir bo'lib tayinlandim... shu kungacha sho'ro idoralarida qilg'on xizmatlarimni birma-bir sanab o'tirishim uzoqqa cho'ziladurg'on bo'lg'anlikdan, muayndan keyin muassasa ismlarinigina atash bilan kifoyalanaman: "Rosto" devoriy gaztasiga muxbir bo'lib, to 1924 yilgacha mehnatkashlar manfaatiga xolis ishlab keldim. Shu o'tgan yetti yil orasida Sho'rolar hukumati va firqadan bir og'iz tanbeh olmadim. Shu orada "Mushtum" jurnalining muallifi va tahririyat a'zosi bo'lib, "Ishtirokiyun", "Qizil bayroq" gazetalarida satrudnuk... bo'lib ishladim. Xulosa boshqalarning xizmat daftari bilan sobit bo'lsa, mening xizmatlarim matbuot bilan ravsjandir... Ishchi dehqonlar yolg'on asarlarimni suyunib o'qiydilar va meni yozuvchilar qatoriga kirgazdilar va meni hamon o'qirlar va unutmaslar..."

Bo'lg'usi adibning ilk ijodi 1913-1914 yillada boshlangan bo'lib, dastlab u shoir sifatida qalam tebratadi. Uning "Ahvolimiz", "Millatimga", "To'y" (1914-1915) "oyna" jurnalida bosilib chiqilgan edi. O'z millatini ma'rifatga chiqaradi. Ma'rifatparvar shoir va adib sifatida maydonga chiqadi. Uning "Baxtsiz kuyov" (1915) nomli fojiasi, "Juvonboz" (1915), "Uloqda" (1916) kabi hikoyalarida ham o'z xalqini savodli, bilimli madabiyatli va ozod ko'rish istagi sezilib turadi.

1914-yil A.Qodiriy Moskvaga borib Jurnalistlar institutida tahsil oladi. Moskvadan qaytin "Mushtum" jurnalida shtatsiz muxbir bo'lib ishlay boshlaydi. Uning "Toshpo'lat tajang nima deydi" va "Kalvak mahzumning xotira daftaridan" turkumidagi bsatirik hikoyalari ana shu jurnalda ilk bor bosila boradi.

Abdulla Qodiriy 1917-1918 yillardan boshlab "O'tkan kunlar" romani uchun material yig'ishga kirishadi. 1922 yilda birinchi o'zbek romanining dastlabki boblari "Inqilob" jurnalida chop etila boshladi. 1925-1926-yillarda "O'tkan kunlar" uch bo'lim holida kitob bo'lib nashr etildi.

1928-yilda ikkinchi tarixiy roman "Mehrobdan chayon" nashrdan chiqdi.

1934-yilga kelib Abdulla Qodiriy qishloq xo'jaligi mavzusiga bag'ishlangan "Obid ketmon" qissasini yaratdi. Undan tashqari u Gogolning "Uylanish", Chexovning "Olchazor" va boshqa g'arb yozuvchilarining satirik hikoyalarini o'zbek tiliga tarjima qildi.

Abdulla Qodiriy 1934 yilda bo'lib o'tan Moskvadagi Butunittifoq yozuvchilarining birinchi quruloyida qatnashdi. U "Amir Umarxoning kanizagi", "Nomoz o'g'ri", "Dahshat" kabi romanlar yaratish orzusida bo'lgani ham ma'lum. Ammo bevaqt orzulari ro'yobga chiqishiga imkon bermadi.

Abdulla Qodiriy 1937-yilning 31-dekabrida qamoqqa olinadi. "menga qo'yilgan ayblarni boshdan oyoq rad etaman. Haqiqat yo'lida hech qanday jazodan, qiynoqdan qo'rqmayman. Agar otmoqchi bo'lsalar, ko'kragimni berib turaman..." Abdulla Qodiriy 1938-yilning 4 янв kunda Toshkentda otiladi. Uning asarlari XX asrdan so'ng, 1956 yildan boshlab yangidan тўғрқ etila boshladi. 1990-yilda Respublika prezidenti farmoni bilan A.Qodiriy nomidagi Respublika davlat mukofoti tasis etildi. 1991-yilda esa A.Qodiriyga Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofoti berildi.

Hozirgi kunda esa bir qator ko'chalar, bog'lar, maktablar, kutubxona, mahalla va oily bilimgohlarda eng bilimdon talabalarga Abdulla Qodiriy nomidagi nafaqa beriladi. Uning yuz yillik tavalludi (1994) ga yeti jildlik to'la asarlari тўғрқ etildi¹.

O'zbek adabiyoti XX asrda ko'pgina yangi realistik adabiyot namunalari, yangi janrlar bilan boyidi. Shular orasida eng muhimi o'zbek romannavislik maktabinig paydo bo'lishi va kamol topishidir. O'zbek romanchiligi Abdulla Qodiriy romanlari bilan birga tug'ildi. "O'tkab kunlar" ilk bor e'lon qilinganidan keyin yuzlab romanlar paydo bo'ldi. Lekin, baribir, Abdulla Qodiriy asarlari o'zbek romannavisligi tarixida sira eskirmaydigan mangu kitoblar bo'lib qoldi.

¹ Мирвалиев С. Ўзбек адиблари. Тошкент. Фан. 1993 йил, 28-30 бетлар.

Shubhasiz, Abdulla Qodiriy ijodini o'rganishda o'zbek adabiyotshunoslari bayrodor bo'ldilar. Ular rasmiy siyosatning taqibiga qaramay, ulug' adib ijodiga nisbatan xolisona munosabatda bo'lishga urindilar. Qodiriy ustidan "lanat tamg'asi"ning olinishi bilan esa talaygina dissertatsiyalar, ilmiy maqolalar, risolalar paydo bo'ldi. Ular Abdulla Qodiriy romanlarining o'zbek nasri taraqqiyotida tutgan o'rni, adib mahorati teran tadqiq etildi va etilmoqda.

Abdulla Qodiriy eng avvalo, milli adib sifatida o'zbek milliy romannavislik maktabining asoschisi sifatida tarixga kirdi.

"Xalqchilik, - deb yozgan edi. V.G.Belinskiy, – davrimiz estetikasining ibtidosi va intihosidir... Shoir sazovor bo'lishi mumkin bo'lgan ens oily maqtoiv "xalqchil" degan sehrli sifatlashda bo'lib romandoshlar yoxud avlodlar uni shunday baland unvon bilangina izza qilishlari mumkin. Xalqchil doston, xalqchil asar ifodasi endilikda ijobiy, ajoyibm buyuk, boqiy asar so'zlari o'rnida qo'llanadi"¹.

V.G.Belinskiy bu fikrga "xalqchilik" so'zi milliylik ma'nosida ishlatilganligi yaqqol ko'rinib turibdi.

Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asarida milliy mazmun bilan milliy shakl millatning yozuvchilik istedodi tufayli o'zaro birlashib, tutashib, yaxlit bir hodisani vujudga keltiradi. Bu yaxlitlik esa, ushbu zaminning milliy asari sifatidagi yutug'ini ta'minlaydi.

Abdulla Qodiriyning romanlari milliy o'ziga xosligini ta'minlashga qaratilgan badiiy mahorati keyinchalik Oybek, G'afur G'ulom, Mirkarim Osim, Said Ahmad, Odil Yoqubov, P.Qodirov, O'.Hoshimov, X.Sultonov, T.Mutod singari yozuvchilar uchun badiiy maktab vazifasini o'tadi. Sovet hokimiyati yillarida milli yadabiyotlarni sotsiolistik realism metodi mezonlari asosida baynalminalashtirish siyosati yurgizilganligiga qaramay, o'zbek adabiyotining

¹Мирвалиев С. Ўткан кунлар. – тарихий роман. Ўзбек тили ва адабиёти. 2004 йил 2-сон 11-16- бетлар.

milliy madaniy sohasi sifatida rivojlanishda davom etagining sirlaridan biri ham xussi shundadir.

“O’tkan kunlar” romancing sokin epic tasviri milliy tariximizning qator yitik voqea va hodisalarini hayotiy dalilar, maishiy va psixologik tavsilotlar asosida o’z ichiga qamrab oladi va ularga o’zbek xalq hayotining keng manzarasi, uning o’ziga xos xarakteri madaniyati, rasm-rusumlari, urf-odatlar aks etadi.

Abdulla Qodiriyning xalq hayoti chuqur bo’lishi xarakteridagi milliy xarakter yaratishda xalq tili va og’zaki ijodi chashmasidan samarali foydalanishi yozuvchining teran ruhiy tasvir madaniyati, asar tilining obrazligi va milliylikiga erishish “O’tkan kunlar romanining milliy nafosatini taminlagan muhim omillardandir.

“O’tkan kunlar” XX asr o’zbek adabiyoti tarixiy taraqqiyotida g’oyat noyob badiiy estetik hodisa bo’lib, u nafaqat Abdulla Qodiriy ijodida, balki, butun markaziy Osiyo xalqlari badiiy tafakkuri rivojida realistic nasriy epic rivoya hamda epic obraz yaratish tizimini boshlab berganligi bilan ham buyuk ahamiyatga ega.

Malakaviy bitiruv ishining maqsadi va vazifalari.

g) Ma'lumki, tildagi har bir so'z boshqa so'zlarga nisbatan alohida, mustaqil birlik sifatida namoyon bo'ladi. Tilning lug'at boyligini sistrtema sifatida namoyon bo'ladi. Tilning lug'at boyligini sistema sifatida o'rganish esa so'zni slohida birlik sifatida emas, balki butunning tarkibiy, o'zaro bog'loq. Ajralmas birlik butunning tarkibiy, o'zaro bog'liq, ajralmas, birlik sifatida o'rganishni taqozo etadi. Til leksikasining tadqiq etishga bunday yondashish o'z vaqtida 1985-yilda akademik M.M.Pakrovskiy tomonidan taklif etilgan edi. Olim o'z doktorlik dissertatsiyasida "Muayyan so'zning ma'nolari tarixi, uni yondosh, ma'nodosh so'zlar bilan o'zaro muvofiqligida o'zgargandagina aniqlanadi, –degan edi¹. Tilning lug'aviy boyligini tizim sifatida o'rganishda I.Tiir va I.Veysberglar tomonidan ishlab chiqilgan "semantik leksik maydon nazaryasi" muhim adamiyatga ega bo'ladi keyinchalik bu nazaryaga I.Ispen va V.Porsig kabi olimlar tomonidan ayrim aniqliklar kiritildi. Rus tilshunosligida O.S.Axmanova, A.I.Smrinskiy, V.V.Vinogradov, A.N.Amosoba, V.G.Gak, K.A.Levkovskiy, V.A.Zviginsev, D.N.Shmelev singari mashhur olimlar system leksikologiya rivojiga salmoqli hissa qo'shganlar².

Semaseologiya izlanishlarda so'zlar muayyan leksik semantik guruh LSGlarga ajratiladi. "Ularning struktural etimologik xususiyatlari, boshqa so'zlar bilan birikuvchinlik imkoniyatlari ham inobatga olinadi.

Har bir LSG tarkibiga kiruvchi so'zlar bir markaziy yadro so'z atrofida birlashadi. Boshqa so'zlardan esa, anashu markaziy dominant so'z ma'nosi yanada konkretlashadi, uning differensial va integral semalariga aniqliklar kiritiladi. O'zbek tilshunosligida so'zlarni ana shunday usulda component tahlil qilishga Sh. Rahmatullayev, I.Qo'chqortoyev, R.Yunusov, I.Abdurahmonov kabi qator olimlar munosib hissa qo'shganlar. Ammo H.Ne'matov va R.Rasulovlar to'g'ri

¹Йўлдошев Б. Пардаев З. Ўзбек тилшунослиги масалалари (илмий мақолалар тўплами). Самарқанд, 2002. 82 бет.

²Йўлдошев Б. Пардаев З. Ўзбек тилшунослиги масалалари (илмий мақолалар тўплами). Самарқанд, 2002. 84 бет.

ta'kidlaganlaridek, "O'zbek tili leksemasining mazmun guruhlar yoki LSGlar system usulda yetarlicha o'rganilmagan. Faqat nutq fe'llari I.Qo'chqortoyev tadqiqotlarida holat fe'llari R.Rasulov ishlarida, qavm-qarindoshlik nomlari M.Narziyeva, baholash sifatlari tana a'zolari nomlari B.Jo'rayev, ko'lam sifatlari I.Abdurahmonov ishlarida zamonaviy uslarda tahlil etiladi. Ammo LSGlarni ajratish nazaryasi o'zbek tilshunosligida hali to'la ishlab chiqilmagan. Biz ana shu fikrlardan kelib chiqib, "yig'i" holatini ifodalovchi fe'llarning o'zbek tilida keng tarqalgan LSGlaridan biri ruhiy holat ifodalovchi xususiyatlarini o'rganishga doir fikr-mulohazalarimizni ushbu malakaviy bitiruv ishida bildirmoqchimiz.

"Yig'i" holatini ifodalovchi leksemalar o'z semantik tabiatidan kelib chiqib, kishilarning ruhiy olatini ifodalashga xizmat qiladi. Hamda bunday fe'llar alohida LSGlar qatorini tashkil etadi. Ular badiiy nutqda tasvirlanayotgan kishi obrazining turli xil ruhiy iztiroblarini aks ettirish va shu orqali kitobxonda ham turli xil emotsiyalarni hosil qilishda muhim uslubiy vositalardan biri sanaladi.

BIRINCHI BOB

O'ZBEK TILIDA "YIG'I" AMALINI IFODALOVCHI LEKSIK BIRLIKLARNING FUNKSIONAL-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

1) Sharqda Alisher Navoiy hayoti va ijodiga qiziqish va serqirra iste'dod sohibining tiriklik chog'idayoq boshlangan edi. Turli tarix kitoblarida, tazkira va bayozlarda, risola va lug'atlarda shoir she'riyatining o'ziga xos til xususiyatlari, fazilatlarini to'g'risida dastlabki mulohazalar bildiriladi.

Alisher Navoiyning boy adabiy me'rosini tushunishni yengillashtirish maqsadida uning asarlari asosida bir qancha lug'atlar va grammatikalar yaratilgan. Turli davr olimlari tarafidan tuzilgan bunday lug'atlar va grammatikalarning yirirmadan ortig'i O'zRFA sharqshunoslik institutida saqlanmoqda.

Alisher Navoiy hayoti va ijodining XX asrda o'rganilish tarixiga nazar tashlasak, uning uch asosiy bosqichni bosib o'tganligini ko'ramiz.

Birinchi bosqich XX asrning boshidan 30-yillarning oxirigacha, Ikkinchi bosqich 40-yillarning boshidan 60-yilgacha, uchunchi bosqich 1960-yildan hozirgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

Birinchi bosqichning qaldirg'och asari Ashurali Zohiriyning "Sadoyi Farg'ona" gazetasining 1914-yil 13-aprel sonida e'lon qilingan "ona tili" maqolasidir. Bu maqolada muallif ayrim o'zbek adiblarining o'z ona tillarini mensimay forsiy, usmonli turk tillaridagi adabiyotlar "ta'siri bilan tuhlangan"liklarini achinib yozadi va ularni so'z san'ati nozikliklarini egallashda Navoiydan o'rnak olishga chaqiradi.

Undan keying bosqichlarda Alisher Navoiy ijodini va hayotini o'rganish bir muncha kuvhaydi. P.Shamsiyev, S.Ibrohimov tomonidan "O'zbek klassik adabiyoti asarlari uchun qisqacha lug'at" tuzildi. Bu Navoiy asarlari leksikasini oydinlashtirish uchun ma'lum darajada xizmat qiladi.

Uchunchi bosichda Alisher Navoiy asarlari tilini muammoli o'rganish kuchaydi, tadqiqotchilar safi kengaydi, u haqdagi ilmlarda sezilarli tarmoqlar ro'y berdi.

A.Navoiy asarlari filologlar, jumladan, lingvistlar uchun sintaksis, leksika va semantika sohalari bo'yicha bebaho meros bo'lib qoldi. Natijada Alisher Navoiy asarlari X.Doniyorov (9), E.Fozilov (10), U.Tursunov va B.O'rinboyev (11), B.Vafojev(12) risollari uchun, darslik (U.Tursunov va boshqalar), qo'lanmalar (Muxtorov J. va boshqalar) uchun manba bo'lib xizmat qildi. Lug'atlar tuzildi (Navoiy asarlari lug'ati).

Alisher Navoiy asarlari tili to'grisida nomzodlik (Rahmatulayeva) va doktorlik (Rustamov, Bafojev, Ashurboyev) dissertatsiyalari yoqlangan.

Mustaqil O'zbekistonning hurfikr milliy istiqlol mafkurasi, madaniy merosi, shu jumladan Alisher navoiy asarlarini qayta o'rganish, falsafasi asosida qayta baholash imkoniyatlarini ochib berdi. Navoiy ijodini yangicha nazar bilan o'rganish va qayta baholashga shoirning dunyoqarashini, badiiy dunyosining falsafiy asoslarini, islom e'tiqodiga munosabatini to'g'ri xolisona yaratishda uning tili va uslubiga doir muammolarni hal qilish lozim bo'ladi.

Shu o'rinda Alisher Navoiyning tilshunoslik sohasiga qo'shgan ulkan hissasini biz "Muhokamat ul-lug'otayn" (Ikki til muhokamasi) asarida ko'rishimiz mumkin. Bu asarda tillarning qiyosiy tomoni o'rganilishi bilan birgalikda turkiy tillardagi fe'l leksemasining badiiy xususiyatlarini ochib bergan. O'z vaqtida Alisher Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn" (Ikki til muhokamasi) asarida yig'i holatini bildiruvchi fe'llar ma'nosidagi ana shu xususiyatga alohida e'tibor qaratgan edi. Alisher Navoiy she'riyatining *шүбһулеи* bo'lgan his-tuyg'ularni ifodalovchi so'zlar haida fikr yuritgan ekan, shunday deb yozgan: "...she'ring bino va madori ishqqa evrulur va oshiqliqda yig'lamoqdin qulayroq va doimiyroq amr yo'qdur..."

Buyuk so'z ustasi Alisher Navoiy yozib qoldirgan bu fikrlarning biz uchun qimmatli tomoni shundaki, unda yig'i holatini umumiy tarzda ifodalovchi so'z

(“yig’lamoq” fe’li)ning o’zigina emas, balki ruhiy fiziologik amalining muayyan tomonlarini bo’rttib ifodalaydigan boshqa lug’aviy birliklar ham birma-bir ko’rsatilgan. Bunda Alisher Navoiy yig’i holatini bildiradigan bir qator fe’llarning ifoda kuchini she’riy misralar orqali birma-bir ko’rsatishga muvofiq bo’ldi:

“...anda (“yig’lamoq” holatida –A.A.) tanavvu bor: yig’lamsiramoq mazmunidaki, turk mundoq depterki, bayt:

Zohod ishqin desaki, qolg’ay tosh,

Yig’lamsinuru ko’ziga kelmas yosh.

Va ingramoq va singramakkim, dard bila yashurun ohista yig’amoqdur va oralarida tafovut oz topilur, turkchada bu matla borkim, bayt:

Istasam davr ahlidin ishqingni pinhon aylamak,

Kechalar gah ingramakdur odatim goh singramak.

Forsiyda bu mazmunki bo’lmag’ay, shoir ty chora qilg’ay? Va siqtamoqkim yig’lamoqda mubolag’adur, turk nav ado qilibdurki, bayt:

Ul oyki, kula-kula qirog’latti meni,

Yig’latti meni demayki, siqtatti meni.

Yana biyik un bilaki, e’tidolsiz oshib bila yig’lagaylar, ana o’kurmak derlar va turkchada ul ma’nida bu matla borkim, bayt:

Ishim tog’ uzra har yon ashk selobin surmakdur,

Firoq oshibidin har dam bulut yanglig’ o’kirmakdur.

Chun o’kurmak muqobalasida forsiy tilda lafz yoqdur. Forsiygo’y shoir munungdek g’arib mazmun adasidin mahrumdir. Yana yig’lamoqning o’kurmak muqobalasida inchkirmak dag’i bor va ul inchka ul bila yig’lamoqdur va ul turk lafzida bu nav tarkib bila ado topibdurkim bayt:

Charx zulmida bo’g’zumni qirib yig’larmen,

Igirur charx (kabi) inchkirib yig’larmen.

Ammo yi’lamoqta hoy-hoy lafzin aoda o’zlarin turkiygo’ylarda sharik qilibdurlar va bu lafz ham aslant tukiyl uslubdur va faqirning bu maqtai mashhurdurkim, bayt:

*Navoiy, ul gul uchun hoy-hoy yig'lama ko'p,
Ki hay deguncha gulbun, ne g'inja ne gul bor!*

Bu asardan olingan parchalardan ko'rinayaptiki, Alisher Navoiy o'z vaqtida turkey tilning imkoniyatlari naqadar chegarasiz ekanligini, bu tildagi birgina "yig'lamoq" fe'lining variantlari va uning sinonimik variantlari xilma-xilligini ta'kidlaydi va turkey tildagi bu imkoniyatlar fors tilida uchramasligini ham aytib o'tadi.

Alisher Navoiy asarlari ichida eng ko'p nashr qilingani "Muhokamat ul-lug'otayn" (Ikki til muhokamasi) asari sababi, bu asarda o'zbek tilining turkiy xalqlar dunyosida boy va go'zal til ekanligi ko'rsatib berilgan. Shoirning maqsadi fors tilini kamsitish emas, aksincha bu tilda ijod qilayotgan turk surafo– turkiy nozikliklar diqatini o'z ona tili boyligiga qaratish edi. Alisher Navoiy o'zbek va fors tilarini tilshunoslikning har uchala sathi fonetika, leksika va morfologiya sohasida muqoyasa qilib o'zbek tilining boy va rang-barang ekanligini ko'rsatib berdi. O'zbek shoirlarini bu tilda ijod qilishga undadi. Bundan besh yuz yil avval muqoyasa usulida yozilgan ushbu asar dunyo tilshunoslarini qiziqtirib kelgani uchun u bir necha marta chop qilindi.

2. "Yig'i" holatining baland ovoz bilan kechishini bildiruvchi leksik vositalarning funksional-semantik xususiyatlari.

Yig'i holati chuqur ruhiy jarayon mahsuli bo'lib, uning maxsus fizik balgilari mavjud:

- a) Maxsus ovoz (yig'i ovozi) asosida hosil bo'lgan yig'i holati;
- b) Ko'z yosh asosida hosil bo'lgan yig'i holati.

O'zbek tilining lig'aviy tizimida mavjud yig'i fe'llarini deyarli barchasi bu amalni yo ovoz bila yoki ko'z yosh vositasia bildiradigan leksik birliklar sanaladi.

Yig'i holar ovoz bilan ifodalovchi fe'llarning ko'pchiligi taqlidiy (ovozga taqlid) so'zlar sanaladi. Bu fe'llarning semantik yadrosini tashkil etuvchi yig'lamoq fe'li ham aslida taqlidiy so'z bo'lgan. Etimologik lug'atda qayt etilishicha, yig'i so'zi qadimgi turkiy tilda 'yig'lash' ma'nosini anglatgan уыг' otiga kuchaytirish ma'nosini ifodalovchi -ы qo'shimchasini qo'shib hosil qilingan; o'zbek tilida ы unlilarining qattqlik belgisi yo'qolgan: йығ+ы= йығы>йиғи (yig'i)¹.

Yig'i konseptiga ishora qiluvchi yig'lamoq fe'lning aniqlovchilari sifatida matnda qo'llanadigan verbal va noverbal vositalarni quyidagi kabi bir nechta ma'noviy guruhlariga ajratib o'rganish mumkin:

1. Yig'i holatining baland ovoz bila kechishini bildiruvchi vositalar.
2. Yig'i holatini ovozsiz kechishini bildiruvchi vositalar.
3. Yig'i holatini kuchli g'am-hasrat bilan kechishini bildiruvchi vositalar.
4. Yig'i holatining baland ovoz bila kechishini bildiruvchi lrsik vositalarning funksional-semantik xususiyatlari.

Bu ma'noviy guruhga bor ooz bilan, bor tovush bilan kabi ko'makchili birikmalar kiradi. Bulardan tashqari qichqirmoq, chinqirmoq, baqirmoq, ho'ngramo, bo'kirmoq, bo'zlamoq, uvvos tortmoq, гм tortmoq, o'kranmoq

¹ Юнусова Д. Ўзбек тилида йиғи ҳолатини ифодаловчи лексик-фразеологик birliklar ҳақида. // тил ва адабиёт таълими. 2010 йил. 6-сон, 22-30 бетлар.

(o'kirmoq, o'kramoq) bo'kirmoq kabi fe'llarni ravishdosh shakli ham yig'lamoq fe'lidan oldin kelib, shu fe'lning aniqllovchi vazifasini bajaradi. Masalan, qichqirib yig'lamoq, chinqirab yig'lamoq, baqirib yig'lamoq, ho'ngrab yig'lamoq, bo'zlab yig'lamoq, uvvos totmoq, oh tortib yig'lamoq, o'kranib yig'lamoq, bo'kirib yig'lamoq kabilar.

O'zbek tilida yig'i holatini ovozsiz ba'zan past ovoz bilan ifodalanishini namoyon etishda ingramoq fe'li muhim ahamiyat kasb etadi. Bu fe'l "og'riq" alam ta'sirida mungli ingroq tovush chiarmoq ma'nosini bildiradi. (O'TIL-5, 2. 207). Bu xususiyat "O'tkan kunlar" romanida keltirilgan quyidagi parchada o'z ifodasini topgan: tag'in bittasini o'liklar ichidan kimnidir ko'rsatib: *Ana, ana, hov ana! O'sha qipchoqqa o'q tegib o'lib o'lolmay, yurib yurolmay ingranib yotgan ekan.* (78 bet). *O'z dardini tushungan bu yigitga brogan sayin dardini ochib so'zlar, yig'lab va ingrab so'zlar edi.* (216 bet). – *Oyi... dada – so'ngra, – begim, – deb ingrandi... reining yuzini yuziga qo'ydi... uyalgansumon ko'zini yumdi...* (O'tkan kunlar 376-bet) Sodiq ingranib qo'ydi (O'tkan kunlar 249-bet). Baland ovoz bilan yig'i amalini ifodalashga xizmat qiluvchi fe'llar o'zbek tilida o'kramoq (o'kirmoq) kabilar bo'lib ularning asosiy qismi biz o'rganayotgan "O'tkan kunlar" romanida qo'llangan bu fe'l ovozi boricha, bor ovoz bilan baqirib yig'lamoq, uvvos tortmoq" ma'nosini beradi. Alamzada Zaynab opasining eri Otabekdan ajral degan qat'iy fikrini eshitish uning qalbini larzaga keltiradi. Ana shu zarba asarda o'krab yig'lab yubormoq fe'li orqali ifodalangan: – dedi *Xushro'y, -chiq eringdan. Zaynab o'krab yubordi.*

Mirzakarim qutidor va Otabek Hamid tufayli ya'ni tuhmat yuzasidan zindonga tushganda, Kumush yomonidan ularni bu kulfatdan qutqarish uchun qo'lidan hech narsa kelolmagan bir paytda shunday yig'laydiki, uning yig'isi shunday edi:

– *Biz endi shunday qolaberamizmi? Agar zolimlar... –dedi-da Kumush so'zining oxirini aytolmay o'krab yubordi.* ("O'tkan kunlar" 77-bet).

Yana asarda yig'i holatining baland ovozda holatini ifodalash uchun quyidagi fe'l shakli xizmat qiladi: *Bo'lmag'ach qovog'ini qo'msab, ho'ngir-ho'ngir yig'lamoqqa oldi.* ("O'tkan kunlar" 153-bet). Qovoqdevona choyxonaga kirganda u yerdagilar uni mazah qilishib, qovoqlaridan birini tortib olganda, u shunday baland ovozda yig'lashga tushib ketadi.

Badiiy asarda yig'i holatini baland kecishini bildiruvchi vositalar qatoriga piq-piq takroriy so'zi ham kiradi. Bu so'z yig'i holatini baland ovoz bilan kechishidan tashqari, ruhiy fiziologik amalning ochiqcha, ro'y-rost kechishini ham beradi. Misol: Qutidor kumush qabriga qo'yilgan lavhani ko'rganda baland ovozda shunday yig'ladi: lavhani шэйши chiqqandan keyin ul ham piq-piq yig'lab yubordi.

Baland ovoz bilan yig'lash holatini bildiruvchi fe'llar guruhiga ho'ngramoq, bo'kirmo, o'kirmoq, o'kranmoq, bo'zlammoq, dod-faryoq qilmoq, uvvos solmoq, uvvos totmoq, uv tortmoq, kabi fe'l shakllari kiradi. Bunday fe'llarning xarakterli xususiyatlaridan biri shundaki, ularning barchasi ravishdosh shaklida yig'lamoq fe'lidan oldin kelib uning holatini ifodalovchi quyidagi so'z, so'z birikmalari hosil qiladi: ho'ngrab yig'lamoq, dod-faryoq qilib yig'lamoq, uvvos solib yig'lamoq kabilar. Ushbu birikmali fe'llarga semantik jihatdan yaqin turadigan asardagi bir misolni keltiramiz: Bu vaqt Jannat opaning "Shahid o'lgan bolam" deb yig'lagan tovushi eshitildi-da, Otabek gunohkor bir yuz bila usta Alimga qaradi. Gapidagi "shahid o'lgan bolam" deb yig'lagan tovush yuqoridagi birikmali fe'llarga semantik jihatdan yaqin turadi. Bu birikma o'rniga dod-faryod qilmoq birikmasini qo'llash mumkin.

Yig'i ovozini meyyordan ortiq (meyyordan baland) ekanligini ta'kidlash, bo'rttirish zarurati tug'ilganda bu fe'llardan ba'zilar takror holda qo'llanadi. Masalan: o'kirib-o'kirib yig'ladi, o'krab-o'krab yig'ladi kabilar.

So'zning meyyordan ortiqligi, balandligi tasavvuri izohlanadigan fe'llarni yig'i holatini bildiradigan boshqa fe'llardan farqlabgina qolmay, ularni yaxlit bir semantik guruhga birlashtirish vazifasini ham bajaradi. Ana shu jihatdan

qaraganda, bu tasavvur mazkur fe'llar ma'nosini birlashtiruvchi mujassamlashtiruvchi component sifatida baholash mumkin.

“O'tkan kunlar” romanida yig'i holatini yanada baland ovoz bilan yig'lash holati kuzatiladi; bu o'kirgan, qattiq ovoz chiqarmoq, shunday ovoz bilan yig'lamoq, ma'nosini ifodalagan e'l uvvos solmoq; *Bechora ona chidolmadi, qabrini quchoqlab, uvvos tortdi.* (O'tkan kunlar” 378 bet).

2) Yig'i holatini kuchli g'am-hasrat bilan kechishini bildiruvchi vositalar.

Bu vositalar kuchli his-tuyg'u idodalaydigan leksik birliklardir. Bunday birliklar qatoriga birinchi novbatda o'rtanmoq, yonmoq, kuyinmoq, kabi fe'llarni ko'chma ma'noda qo'llangan shakllari kiradi. Bu fe'llarning ravishdosh shakli yig'lamoq fe'lidan oldin kelib yig'i holatini kuchli iztirob, g'am, alam, chuqur qayg'u asosida sodir bo'layotganini ifodalash vositasiga aylanadi.

Yig'i holatini kuchli iztirob va g'am-alam bilan kechishini bo'rttirib ko'rsatish maqsadida matnda zor, qon kabi so'zlar ham qo'llaniladi. Jumladan, zor so'zi yig'lamoq fe'li bilan birga qo'llanganda eng zarur, eng aziz narsadan ayrilish yo unga yetolmaslik orqasida alam, iztirob, yig'lash holatini bildirishga vosita bo'ladi. Qon so'zi esa yig'lamoq fe'li bilan ifodalanib alam, hasrat bilan yig'lashholatini kuchli tarzda ifodalaydi.

Yig'i holatini kuchli g'am-hasrat bilan kechishini ifodalashga xizmat qiladigan birikmalarga "O'tkan kunlar"da shunday misollar bor: *Tashlandiq bu qizingiz qo'lma-qo'l yurg'uchi bu o'yunchiq qiring'ir kim-u, sizdek bir mehribon onani qon yig'latish kim? Yig'lamangiz, ona.* ("O'tkan kunlar" 213 bet).

Kun sayin necha gunohsizlarni osdirgan, kesdirgan bolalarimizni yetim, onalarimizni qon yig'latgansen emasmisan? ("O'tkan kunlar" 109 bet).

Romanda yana g'am-hasratning kuchliligini ifodalash uchun quyidagi fe'llar vosita bo'ladi: Usta Alim turmush o'rtog'i (xotini)dan ajralganidan, uni bir umr sevganidan, uni eslab achchiq-chchiq yig'laydi. Bu holat "O'tkan kunlar" romanida quyidagicha berilgan: Chunki marhuma Saodat bilan kechirgan kunlarimning totli xotiralari menga aadbiy lazat bag'ishlaganlaridek, ham achchiq-achchiq yig'latadilar.

Yig'lamoq fe'lining takroran qo'llanilishi ham, yig'i holatini kuchli iztirobdaligini ko'rsatishga xizmat qiladi: *Darhaqiqat Xushro'yning bu ishidan ham toymasligini aniq bilib yig'lay-yig'lay bolalarini o'zi bilan olib ketadilar.* ("O'tkan kunlar" 360 bet). *Go'yo Kumush "mendan rozi bo'ling!.." deb onasiga*

xitob qilar Oftob oyim orqasig'a qaray-qaray yig'lab kelar edi. ("O'tkan kunlar" 378 bet); Ertasi kuni O'zbek oyim yig'lay-yig'lay Yodgorbek uchun tikdirgan kiyimlarini o'g'liga topshirdi. ("O'tkan kunlar" 379 bet).

Endi Toshkandga kelmasin ul o'z boshimcha betiyo'q! –deb bairib-chaqirib yig'lab-siqtab, dard-u hasratini boshiga kiyib oldi. ("O'tkan kunlar" 130 bet);

Ona-bola uzoq yig'lashdilar, ko'z yoshlari bitguncha bo'zlashdilar. ("O'tkan kunlar" 213 bet).

Iztirob va alam hissini matnda yana ham kuchliroq, bo'rttirib ifodalash maqsadida zor va qon so'zlari takror qo'llanadi: zor-zor yig'lamoq, qon-qon yig'lamoq, Bunday holat "O'tkan kunlar" romanida quyidagi misolda o'z aksini topgan: *Yanglish so'zlaysiz onajon! –dedi Kumush va siz dunyoda turishka loyiq edingiz, lekin sizni dunyodan to'yishingizga va qon-qon yig'lashingizga sababchi men bo'ldim. ("O'tkan kunlar" 213 bet) kabilar.*

3) Yig'i holatini ovozsiz kechishini bildiruvchi leksik vositalarning funksional-semantik xususiyatlari

Bu til vositalariga ovozsiz, tovushsiz, unsiz kabi lug'aviy birlik kiradi. Mazkur lug'aviy birliklar matn tarkibida yig'lamoq fe'lining aniqlovchisi bo'lib keladi hamda yig'i holatini ichki tomoni, shaxsning ruhiy kechinmalarini ifodalaydi.

Bu o'rinda shuni ham inobatga olish kerakki, o'zbek tilida past ovoz bilan yig'lash holatini bildiruvchi maxsus fe'l mavjud emas. Lekin tilimizda baland ovozda yig'lash holatini bildiruvchi fe'llarga qarama-qarshi, zid qo'yiladigan ayrim fe'llar bor. Bunday fe'llar qatoriga ingalamoq ingramoq singari so'zlarni kiritish mumkin. Agar biz bu fe'llarning individual ma'noviy belgilarini nazardan o'tirib qilsak, ular xo'ngramoq, bo'kirmoq, bo'zlam oq kabi fe'llardan yig'i ovozini ingichkaligi pastligi kabi xususiyatlarni ko'rsatishi bilan farqlari bilan ajratib ko'rish mumkin. Izohlanayotgan ingalamoq, ingramo kabi fe'llar tarkibidagi "i" tovushi ham manashu holatga ishora qiladi. Yana o'zbek tilida ho'ngramoq, bo'kirmoq, bo'zlam oq kabi fe'llar tarkibida qo'llangan "o' " unli tovush yo'g'on, qo'\pol ovoz bilan, ingalamoq, ingramoq kabi fe'llar tarkibidagi "I" unli tovushi esa ingichka nozik ovoz bilan talaffuz qilinadi.

O'zbek tilida yig'i holatini ovozsiz, ba'zan past ovoz bilan ifodalanishini namoyon etishda ingramo fe'li muhim ahamiyat kasb etadi. Bu fe'l og'riq, alam ta'sirida mungli ingroq tovush chiqarmoq. Ko'chma shunday azob, alamli holatda bo'lmoq (O'TIL –5.2. 207 bet).

Bu hissiyot "O'tkan kunlar" romanida keltirilgan quyidagi parchada o'z ifodasini topgan: *Tag'in bittasini o'liklar ichida kimnidir ko'rsatib: Ana, ana, hov ana! O'sha qipchoqqa o'q tegib o'lib o'lolmay, yurib yurolmay ingranib yotgan ekan.* ("O'tkan kunlar" 78-bet). *O'z dardini tushungan bu yigitga brogan sayin dardini ochib so'zlar, yig'lab va ingrab so'zlar edi.* ("O'tkan kunlar" 216 bet).

Yig'i holatini past ya'ni ovoz jihatdan hamda g'am-hasratning kuchsizligiga misol bo'ladigan ayrim misollarni keltirib oo'tamiz.

Otabekning tasallo berishi bilan Hasanali undan qo'l tortdi ersada, biroq undan hayajon, yig'i hali ajramagan edi ("O'tkan kunlar" 124 bet). Hasanali Otabekni dor tagidan qaytaruvchi maktubini vaqtida olib kelganidan va kuchli hayajondan Otabekni ko'rganida shunday yig'laydi.

Otabek ortiq chidab turolmadi-da, ro'moli bilab ko'zini yashirib yig'lamoqqa kirishdi. ("O'tkan kunlar" 216 bet). G'amboda Otabek "navo" kuyining hasratlarini sekinlik bilan ko'z yoshi orqali ko'rsatmoqda edi. Shuning uchun bu gapni ushbu ma'noviy guruhga kiritdik.

Biroq hozirgi ixtiyor ozida emas edi. Hamma ixtiyor dutorning hazin "navo"sida, toqatsiz yig'isida edi. ("O'tkan kunlar" 124 bet). Navo kuyi dutor orqali past ovozda yig'lamoda edi, buni biz yuqoridagi misolda berib o'tdik.

O'zbek oyim ham uni mahkam quchoqlab olgan yuzidan shop-shop o'pib aylanib o'rgilar va tikilib-tikilib nima uchundir yig'lar edi. ... ("O'tkan kunlar" 313 bet). Bu gapda yig'i holati O'zbek oyimga tegishli bo'lib, u Kumushni ustidan qilgan xatolarimni, yoki shunday kelini borligidanmi, ishqilib quvonganidan unsiz yig'lagan holati.

Usta yig'lagan holda Otabekni quchoqlab o'pdi-da, ayvonga ko'rpacha sola boshladi. ("O'tkan kunlar" 254 bet). Bu gapda usta Alimning past ovozdagi sevinch yoshlarini ko'rishimiz mumkin.

Oftob oyim bo'lsa, qizining qadrini bunchalik arshlargacha ko'tarmakka bo'lgan yigitga o'zida cheksiz muhabbat poyonsiz ehtirom sezmakda va nima uchundir yig'lag'usi va kuyovi yuzidan o'pkusi kelgan edi. ("O'tkan kunlar" 149 bet).

Yig'i holatini past ovozda kechishini anglatuvchi maxsus birliklar bo'lmagani uchun biz bunday (ma'no) LSG mansub bo'lagan misollarni ovozning ishtiroki pastroq yana kishilarda (obrazlardagi) quvinch yoshlari kabi birikmalarni ham bu ma'noviy guruhga kiritishni lozim topdik. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida yig'i holatini endi boshlanish yok isodir bo'lishga ya'ni bu holatdagi yig'i ovozining neytral ko'rinishlari ham kuzatiladi: *Yig'lama bekachim,*

–dedi To'ybeka, –biz bilamiz sizning ko'z yoshlaringizning nimaga ekanin: erlar suyunganda kulsalar sizga o'xshash qizlar yig'laydilar; sizning yig'lag'aningiz – quvong'aning'iz. – biladir dedi oyim (“O'tkan kunlar” 149 bet);.

II bob

1. “Yig’i” holatini ifodalovchi frazeologik birliklar haqida umumiy tushuncha

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida yig’i holatini umumiy tarzda ifodalashda ko‘proq yig’lamoq fe‘lidan foydalaniladi.

Yig’i holatining fizik, fiziologik holatlaridan biri ko‘z yoshi bo‘lib tilimizda yig’i holatini bu belgi asosida ifodalaydigan birliklar asosan quyidagi frazemalardan iborat: ko‘z yosh qilmoq, ko‘ziga yosh kelmoq, ko‘ziga yosh olmoq, ko‘z yosh to‘kmoq, ko‘zidan yosh oqmoq, ko‘ziga yosh to‘lmoq kabilar. Bu frazemalarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, ular asosan, ovozsiz yig’lash holatini bildirish uchun vosita bo‘lib xizmat qiladi: Duyo mojarosidan qo‘l yuvmoqchi bo‘lgan bir otag’a keksaygan kunlarida farzand dog’ini ko‘rmaslikning o‘zi ham ulug’ mukofotdir, –dedi va ko‘ziga yosh oldi. (“O‘tkan kunlar” 149 bet); Ayoni shahar uning bu holig’a chidab turolmay ko‘zlariga yosh oldilar. (“O‘tkan kunlar” 101 bet). Bu iboralardan ko‘rinadiki, ular bajarayotgan funksiyayig’lamoq ma’nosini bermoqda.

Hozirgi o‘zbek tilida yig’i holatini bildiruvchi frazeologik birliklar qatoriga yana bir qancha frazemalar kiradi va ularning “O‘tkan kunlar” romanida qo‘llangan turli xil ko‘rinishlarda, shakllarda bo‘lib, asar tilining rmotsionalligini oshiruvchi muhim vositalar qatoriga kiradi. Ular: “yig’lamoqdan beri bo‘lmoq” – yig’lab yuborish darajasiga yetmoq (siqilgandan, alamidan¹: – Yo‘q, kechmayman, faqat bir necha vaqt sog‘inibgina yuraman. Oftob oyim qizining bu gapini eshitib yig’lamoqdan beri bo‘ldi. (“O‘tkan kunlar” 348 bet). Yana asarda shunday ma’no (sema) tashuvchi frazeologik birliklar ham kuzatiladi. Misol ikkinchisi “zap qovoq edi-da” degan edi, uchunchisi “attangdeb qo‘ydi. Devonaning o‘pkasi shishib ketdi (“O‘tkan kunlar” 153 bet). O‘pkasi to‘ldi, iztirob chekib, yig’lab yuborish holatiga yetmoq. Varianti: O‘pkasi to‘lishib².

² Раҳматуллаев Ш. ЎТИФЛ. Тошкент. Ўқитувчи, 120 бет.

Shunga o'xshash yana bir misol: Marg'ilon degan shahardagi katta o'zini kichik olib, qizi ila kelayotgan Mirzakarim akaga o'g'lining xo'rliq keltirishidan qo'rqdi. ("O'tkan kunlar" 299 bet); Shunisi muhimki, yozuvchi A.Qodiriy xo'rliq so'zining qayg'I, g'am-hasrat ma'nolari bilan bevosita bog'liqligini chuqur his qilgan holda ularni asarning boshqa o'rinlarida ham personajlarning yig'I hatti-harakati bilan bog'liq ichki xususiyatlarini ifodalashga vosita sifatida foydalaniladi. Buni quyidagi misollar ham to'la tasdiqlaydi. Bu xo'rlik, bu odatdan tashqari uyatsizlik bechora qutidorni juda ezgan, nima qilmoqqa xo'rlang'an, tahqir etilgan, qizini ne yusunda yupatishka bu qaro kunlarni qandoq qilib o'tkarishka bilmas edi. ("O'tkan kunlar" 149 bet); Ammo hozirgi daqiqada unga eng ochiq tasir etgan narsa: Boringiz eshigim yonida to'xtamangiz! Jumlasini bo'lito'lqinlkangan izzatli nafsini hamisha "qora ohu ko'zlari" ko'rishga o'rganmish yurak ko'zini xo'rlik pardasi bilan yashirishga majbur bo'ldi. ("O'tkan kunlar" 187 bet). Yuqoridagi misollarda ko'rinadiki, "xo'rlik keltirishdan qo'rqdi", "xo'rlang'an", xo'rlik pardasi bilan yashirishga majbur bo'ldi" kabi birikmalar va iboralar anglatgan ma'nolari quyidagicha O'TIFLda o'z aksini topgan. Xo'rliqi keldi-o'ksinib, yig'lab yuborish holatiga bormoq¹. Keltirilgan matnda qo'llangan "xo'rliq keltirishdan qo'rqdi" birikmasidagi dastlabki component "Qo'rliq" so'zining semantikasida g'am, hasrat, qayg'u semalari mujassamlashgan bu esa o'z navbatida yig'I amali bilan bog'liq ichki iruhiy jarayonlarni ifodalovchi semalardir. Shunga binoan mazkur birikma tarkibidagi dastlabki komponentning o'ziyiq uning yig'i amali bilan bevosita bog'liq hatti-harakatini ifodalashga xizmat qiladi. Ushbu iboralardan, demak, shunday "yig'i" holatining semantik ma'nosi anglashiladiki, biror og'riq, alam, azobdan yoki bir nohaqsizlikdan yig'lab yuborish holatiga yetadi. Bu iboralarni biz bir umumiy kuchsiz ma'noviy guruhga kiritish bo'ladi. Ma'no ifodalovchi LSG qatoriga kiritish mumkin.

Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida "yig'i" amalini ifodalovchi frazeologik birliklarning qo'llanilish doirasi (Agar Sh. Rahmatullayevning

¹ Раҳматуллаев Ш. ЎТИФЛ. Тошкент. Ўқитувчи, 248 бет.

“O’TIFL” bilan taqqoslaganda, ya’ni ilmiy asoslanmaganligi uchun) kam unumli bo’lgani holda, biz frazeologik birliklar va ko’chma ma’noli so’zlar (polisemantik)ning o’zaro bir-biriga yaqinlik xususiyatlarini yoritishga harakat qilamiz.

Rus tilshunosligida bo’lgani kabi turkiyshunoslikda frazeologiya sohasini tor va keng ma’noda tushunish hamon davom etib kelmoqda¹.

Jumladan, akad.S.K.kenisbayevning fikricha, frazeologiya doirasiga keng ma’noda barcha turg’un birikmalar (maqollar, matallar, idiomatīl birikmalar, so’zlarning noidiomatik frazeologik birliklariva juft so’zlar) kiradi. Ularni birlashtiruvchi umumiy xususiyat turg’unlik va tilde tayyor holda mavjudlikdir. S.K.Kenisbayev turg’un so’z birikmalari orasidan frazeologiyani tor ma’noda tushunish uchun bevosita asos bo’la oladigan guruhlarini alohida ajratib ko’rsatadi. Bunday guruhlariga idiomatic va noidiomatik birliklar, akad.V.V.Vinogradov frazeologik qo’shilmalargakiritgan frazemalar hamda qo’shma juft iboralar kiradi. Olim idiomatic birikmalarning boshqa tip turg’un birikmalaridan, jumladan maqol va matallardan farqini ham alohida belgilashga intiladi. Tadqiqotchining fikricha idiomalarning semantik o’ziga xosligi ularning nutqda yaxlit (ustama) ko’chma ma’noda qo’llanilishi, bu ustama ma’no komponentlari anglatgan ma’noga aloqador emasligi bilan belgilanadi. Frazemalar tiplari orasidagi semantik farqlarni belgilashda miqdoriy mezondan ko’ra, bulardagi leksik-semantik munosabatlar belgilovchi omil sanaladi².

S.N.Muratov o’z monografiyasida turg’un so’z birikmalari qatoriga quyidagi til birliklarini kiritadi: a) Qo’shma so’zlarning turli tiplari; b) leksikalizatsiyalashgan so’z birikmalari; v) grammatikalizatsiyalashgan so’z birikmalari; g) frazeologik birikmalar, qo’shma so’zlarning barcha tiplari. S.N.Muratov fikricha, kompozitsiya usuli yordamida yuzaga keladi. Turg’un so’z birikmalari esa kompozitsiya usuliningmahsuli emas, shunga muvofiq, ular turkey

¹ Юлдошев Б. Фразеология тарихидан лавҳалар. Самарқанд. 1998. 10 бет.

² Юлдошев Б. Фразеология тарихидан лавҳалар. Самарқанд. 1998. 11 бет

tillarning frazeologim materiallarini tashkil etadi. Shunday qilib, S.N.Muratoov talqinicha, frazeologik birliklar turg'un so'z irikmalarining bir tipidir, xolos. "Turkiy tillarda, –deb yozadi u, – har qanday frazeologik birlik, turg'un so'z birikmasi, lekin har qanday turg'un birlik frazeologik birlik bo'la olmaydi.

Erkin so'z birikmalaridan frazeologik birliklar, S.N.Muratov talqinicha, quyidagi belgilariga ko'ra farqlanadi: a) semantik yaxlitlik; b) obrazlilik; c) ko'chma ma'nolilik. Frazeologik birliklarning konkret lug'aviy ma'noga ega emasligi nuqtai nazardan S.N.Muratov ularni quyidagi ikki guruhga ajratadi.

- a) Leksik-frazeologik tipdagi idiomalar (konkret lug'aviy ma'noga ega bo'lgan frazeologik birliklar);
- b) Sof frazeologik tipdagi idiomalar (konkret lug'aviy ma'noga ega bo'lmagan frazeologik birliklar).

Leksik-frazeologik tipdagi idiomalar S.N.Muratov tasnifiga ko'ra ikki guruhdan iborat. Birinchi guruh leksikalizatsiyalashgan yoki terminlashgan so'z birikmalari kiradi. Masalan, shayton chirog'I, yangi yer kabi. Ikkinchi guruhga esa birinchi komponenti mustaqil lug'aviy ma'noga ega bo'lmagan, faqat shu frazeologik matnlardagina qo'llanadigan turg'un so'z birikmalari mansubdir: tozza asal, quyma yomg'ir kabi.

Sof frazeologik tipdagi idiomalarga S.N.Muratov obrazli turg'un so'z birikmalarini kiritadi. Bu tipga shuningdek, maqol, matallar va ko'chma ma'noda qo'llanadigan barcha obrazli bo'lmagan birikmalar ham kiritilishi mumkin. Bunday turg'un so'z birikmalarining asosiy vazifasi nutqda tasviriylilik va obrazlikni yanada kuchaytirishga xizmat qilishdan iborat. Yuqorida qayt etilgan ikki tipli idiomalardan tashqari uchunchi tip– turg'un frazeologik shtamplar (kirish iboralar, undov iboralar, so'zlashuv nutqi iborolari)ni ham hisobga oladi. Turkiyshunos olim A.A.Yo'ldoshevning fikricha, leksik va frazeologik birliklar

o'rtasidagi farq structural jihatdan emas, balki semantik funksional, aniqrog'i uslubiy jihatdan ko'zga tashlanadi¹.

Shu o'rinda idiomaga ta'rif: "Idioma – shaklan bo'laklarga ajralmaydigan, mahraji birikma tarkibidagi so'zlarning to'g'ri va konkret ma'nosi bilan talqin qilinmaydigan, ko'chma ma'no anglatuvchi barqaror so'z birikmalaridir"².

G'. Salomov o'zining nomzodlik dissertatsiyasida "frazeologik ibora", "idioma", "ibora", kabi atamalardan sinonim sifatida foydalanadi.

M.Ro'ziqulovning fikricha, "idiomala bitta so'zga teng bo'lib, turg'un xarakterga ega ekanligi bilan ham boshqa so'z birikmalaridan farq qiladi. U idiomalarga quyidagicha ta'rif beradi. "Ma'lum bir til uchun xarakterli bo'lgan obrazli so'z birikmalari idioma deb ataladi. Idioma o'ziga xos sususiyatga ega bo'lib, eng avvalo u ko'chma ma'nolidir. U so'z birikmasidan iborat bo'lib, semantik va sintaktik jihatdan bo'linmaydi. Boshqa tillarga so'zma-so'z tarjima qilinmaydi. Komponentlarining to'g'ri ma'nosiga asoslanmagan, oldindan ma'lum bo'lgan ma'noga egadir"³.

Yuqorida nomlari zikr etilganlarning frazeologiya sohasidagi ilmiy xulosalari va ularning monografiyalariga asoslanadigan bo'lsak, A.Qodiriyning "O'tkan kunla" romanida S.N.Muratov tavsiflaganidek, sof frazeologik tipdagi idiomalar va leksik-frazeologik tipdagi idiomalarni ham (sof frazeologik tipdagi idiomalarni ishning boshida ko'rib o'tdik) uchratishimiz mumkin. Ularga: ko'zlari g'iq yoshga to'lib – yig'lab, yoshli ko'zlari yig'isi – yig'lagani ko'chma ma'noda, obrazli tarzda, ko'zlariga yosh oldilar–yig'ladilar, ko'z yoshini duv-duv to'kmoq–yig'lamoq, ko'ziga yosh oldi – yig'ladi, ko'z suvi bir-ikki qayta suv bilan to'lgan edi, ko'z yoshiga ko'mildilar –yig'ladilar, ko'z yoshlari bilan soqolini yuvdi – yig'ladi tanidagi suvlarni ko'zi orqaliq to'kdirdi –yig'latdi, ko'zlari yosh bilan singan–yig'lagan, hasratlik yoshlar to'kkan –yig'lagan, ko'zida bir turlik

¹ Юлдошев Б. Фразеология тарихидан лавҳалар. Самарқанд. 1998. 23 бет.

² Саломов Л. Тил ва таржима. Тошкент. 1983 й. 213 бет.

³ Рўзиқулова М. Ўзбек тилида идиомалар. Ф.ф.ном. дисс. Самарқанд. 1966 йил 18 бет

g'iltillash–yig'lash, ko'zini to'ldirib yig'lab, ko'zida bir turlik g'iltillash–yig'lash holatida, uvvos tortdi – yig'ladi.

Bu keltirilgan birliklar ko'chma ma'nolikka, ma'lum qismi obrazlikka, ya'ni frazeologik birliklarga xos bo'lgan barcha xususiyatlarga ega bo'lgan leksik – frazeologik idiomatik birliklardir.

Prof.Sh.Rahmatullayevning ta'kidlashiga ko'ra “f'el frazemalaridagi bog'lashuv ko'p qirrali o'ta murakkab hodisa bo'lib, o'z doirasiga turli-tuman sintaktik, semantik hodisalarni qamrab oaldi. Bog'lashuv imkoniyati til birligiga mansub xususiyat deb qaralgani bilan, bu xususiyat til birliklarining o'zaro bog'lashuvida namoyon bo'ladi. Til birligiga xos bog'lashuvning mohiyati leksik-grammatik qurshov tufayligini ochiladi. Bunda til birligiga xos ochiq o'rini qanday sintaktik bo'lak egallashi (sintaktik bog'lashuv), bu bo'laklarning qanday Grammatik shaklda kelishi, bu bo'laklarning atalganligi (Grammatik-semantik bog'lashuv) hisobga olinadi. Semantik bog'lashuv (semantik tanlanuv) deb yuritiladigan bosqichda esa o'zaro bog'lashuvchi lug'aviy ma'nolarning ideografik semalari asosida fikr yuritiladi¹.

Keyingi yillarda o'zbek tilshunosligida frazemalar komponent tahlil metodi asosida ham o'rganilmoqda. Bu jihatdan ayniqsa, I.Qo'chqortoyevning “so'z ma'nosi va uning valentligi” kitobi xarakterlidir. Mazkur ishda tilimizdagi nutq fe'llari tizimi o'rganilar ekan, bunday fe'llar gapiruv fe'llari, sub'yektiv hokum fe'llari, tafakkur fe'llari, nutqiy da'vat fe'llari, simmetrik nutq fe'llari singari guruhlarga ajratiladi hamda har bir guruhga oid so'zlar bilan bir qatorda shunday ma'no ifodalovchi frazemalarning semantik tuzilishi ham tatqiq etiladi. Masalan uzoq gapiruv amalii bildiradigan fe'llar haqida so'z yuritilganda, gapni cho'zmo, gap bermaslik, tom ustida tom yopmoq, gapiga berilib ketmoq, gap chaynamoq, jag' urmoq, quloq miyani yemoq, quloq miyani qoq qo'lga bermoq. Singari frazemalar ham keltirilgan.

Hozirgi oz'bek tilida his-fikr fe'llari ikkiga bo'linadi:

¹ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилида феъл фраземларнинг боғлашуви. Тошкент. 1992, 125 бет

- 1) Ma'nosi ta'kid arxisemasi bilan xarakterlanadigan his-fikr fe'llari;
- 2) Ma'nosi arz-hol arxisemasi bilan xarakterlanadigan his-fikr fe'llari.

Ma'nosi arz-hol arxisemasi bilan xarakterlanadigan fe'l va frazeologizmlarga e'tiborimizni qaratsak.

Ma'nosi arz-hol arxisemasi bilan xarakterlanadigan his-fikr fe'llarning bir guruhi biror fikrni yig'i orqali va o'sha his-tuyg'uni ifodalash amaliga nisbatan qo'llanadi. Ma'nosi arz-hol arxisemasi bilan xarakterlanadigan ifodalov fe'llarining bir guruhi "to'la-to'kis" qo'shimcha semasiga ega. Bu birliklar yurakni bo'shatmoq, ko'nglini bo'shatmoq, ko'z yoshini duv-duv to'kmoq, ko'zidan jiqqa yosh chiqarmoq, ko'zlarini jiq yoshga to'latib kabi frazeologizmlar ichki forma tomonidan o'zaro farqlanadi: yurakni bo'shatmoq, ko'nlini bo'shatmoq, iboralari qalbdagi gaplarni bir yo'la aytib, qalbini bo'shatib yig'lash holatini ifodalashga xizmat qiladi. Usta Alim bir oz o'zini keying tashladi va ko'ziga jiqqa yosh chiqardi. Ko'z yoshini duv-duv to'kib, xatni o'z taxiga soldi va o'zidan javob kutib turg'an achasi bilan onasiga dedi. Bu gaplardagi ikkita birikmali idiomatic birikmalarga misol bo'la oladi.

Talaffuz fe'llari nutqning ovoz tomonini, tovush talaffuz tomonini xarakterlaydigan fe'llardir. Nutqning tovush-talaffuz xarakteristikasi bu fe'llar ma'nosining asosiy yatakchi elementni tashkil etadi. Nutq mazmuni, nutq obyekti kabi elementlar talaffuz fe'llari ma'nosi uchun ikkinchi darajali elementlar sanaladi. Bundan talaffuz fe'llari nutqni tovush talaffuz belgilari asosida nomlaydigan birliklar ekanligi ma'lum bo'ladi.

Nutqning tovush-talaffuz xususiyatlarini umumiy tarzda ifodalaydigan maxsus fe'l hozirgi o'zbek tilida yo'q. yig'lamoq fe'li talaffuz fe'llarining identifikatori bo'lolmaydi. Bu fe'l nutq elementlarini aytish, artikulyatsiya qilish amalini bildiradi. Shuning uchun bu fe'l ma'nosi nutq amaliga emas, balki nutqni tavsiflash amaliga qaratilgan.

Talaffuz fe'llarining indentifikatori roliga eng mos keladigan fe'l yig'lamoq. Biz quyida yig'lamoq fe'llarining meyyorini xarakterlaydigan holatlarini ko'ramiz. Talaffuz fe'llari dastlab ikki guruhga bo'linadi:

- 1) Talaffuzning past-balandligini xarakterlaydigan nutq frazemalari;
- 2) Talaffuz tezligi, bir xilligi va shu kabi xususiyatlarni xarakterlaydigan nutq frazemalari.

Talaffuzning past-balandligini xarakterlaydigan nutq frazemalari normadan past yoki baland ovozda gapiruv bilan bir qatorda boshqa, tovushlar aytilgani ham sezilib turadi. Shuning uchun bunday frazemalarni talaffuz fe'llarining perefizik zonasidagi birliklar sifatida baholash o'rinlidir: Ayira bo'lmadi-da, latif ko'kragini tort enlik ko'tarib, tin oldi va ko'zlari jiq yoshga to'ldi. (A.Qodiriy "O'tkan kunlar" 210 bet).

Oftob oyim kumushning bu so'zlariga turib turlolmay, qizini ba'riga bosib quchoqladi. Ona-bola tag'in shiddatlik ravishda ko'z yoshig'a ko'mildilar. (A.Qodiriy "O'tkan kunlar" 214 bet). Yuqoridagi misollarda muallif tilidagi qo'llangan ko'zlari jiqqa yoshga to'lmoq va (shiddatlik ravishda) ko'z yoshig'a ko'milmoq birikmalari baland ovozda gapiruv holatini ifodalamoqda.

Normadan baland ovozda gapiruv amalini bildiradigan fe'llarning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, bu fe'llar ma'nosidan baland ovozda gapiruv bilan bir qatorda, boshqa kuchaytiruv vositalari aytilgani ham sezilib turadi. Masalan, Shiddatlik ravishda (ko'z yoshig'a ko'mildi) kabi.

Normadan past ovozda gapiruv amalini bildiradigan frazemalar ko'pchiligi tashkil etadi. Bu frazemalarning ma'nosi "past ovozda yig'lamoq" yo'sinda ta'riflanishi mumkin. Bu frazemalar guruhi "ko'zlaridan oqqan marvarid tomchilari", "yoshli ko'zlari", "ko'z chuquri bir-ikki qayta yosh suvi bilan to'lib chiqqan", "ko'z yoshlari bilan", "tanidagi suvlarni ko'zi orqali to'ldirmoq" kabi ko'chma ma'noni ifodalovchi frazeologik birliklarni kiritish mumkin: Niyohay

“navo” kuyi uning butun tanidagi suvlarini ko’z iorqaliq to’kdirdi-da, falakning teskari harakatidan shikoyat etib qo’ydi. (“O’tkan kunlar” 216 bet).

Talaffuz protsessining tezligi. Bir xilligi va shu kabi xususiyatlarni xarakterlaydigan frazemalar ma’nosi uchun tovushning baland yoki pastligi semantik muhim belgi hisoblanmaydi. Bu frazemalar tovush talaffuzining boshqa xususiyatlari, belgilari asosida nutqni nomlaydi. Ularni uchga guruhlash mumkin:

- 1) Noaniq tovush (ohang) bilan gapiruv amalini bildiradigan frazemalar,
- 2) Jonga tegadigan tovush (ohang) bilan gapiruv amalini bildiradigan frazemalar.
- 3) Tez gapiruv amalini bildiradigan frazemalar.

Nutqni tovushda (ohangda) gapiruv amalini bildiradigan frazemalarning o’ziga xos xususiyati shundan iboratki, bu frazemalar, tovush talaffuzining noaniqligidan tashqari so’zlarning noroziligini, nimalardandir zorlanishini ham ifoda etadi. Bu frazemalar bildiradigan situatsiya shunday bo’ladiki, bu situatsiya agensi norozi bo’ladi. Lekin norozilikni ochiq ko’rsata olmay, noaniq tovushda yig’laydi: Oqchib yoshlangan ko’zlari bilan eriga qarab oldi (“O’tkan kunlar” 374 bet).

Kumushning ko’zuda bir turlik qiltillash bor edi (“O’tkan kunlar” 343 bet). Bu misollarda keltirilgan birikmalar yig’i holati bir oz yuqorida aytilganidek noaniqroq tarzda ifodalanmoqda.

Noaniq tovushda gapiruv amalini bildiradigan frazeologik birliklarning ya’ni ikki xususiyatiga e’tiborni jalb qilib o’tishni lizim topamiz. Bu xususiyatlardan biri shundan iboratki, noaniq tovushda gapiruv amalini bildiradigan frazeologik birliklar kuchli salbiy amotsional bo’yoqqa ega. Bu birliklarning salbiy emotsional bo’yog’i o’krab yig’lamoq, o’kirib yig’lamoq, bo’kirib yig’lamoq kabi birikmalarda ayniqsa yorqin ifodalanadi.

Noaniq tovushda gapiruv amalini bildiradigan birikmalarning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri shuki, bu birikmalarning ba'zilar tovush talaffuzining yo'g'on ingichkaligiga qarab o'ziga xos oppozitsiya hosil qiladi: uvvos solmoq – yosh bilan to'kmoq, ho'ngrab yubormoq – ko'zyoshini quritmoq. Bunday kodlanish leksik motivatsiya orqasida yuzaga keladi¹.

Yuqorida “yig'i” holatini anglatuvchi frazeologik birliklarning gapiruv holatidagi ayrim funksional – semantik jihatlarini ochishda A.Qo'chqortoyevning “so'z ma'nosi va uning valentligi” nomli ilmiy kitobidan foydalandik.

Gapiruv fe'llari nutq fe'llari semantik maydonning asosiy, markaziy leksik-semantik guruhlaridan biri hisoblanadi. Gapiruv fe'llari nutqni, uning ichki xususiyatlari asosida nomlaydigan so'zlardir. Boshqacha qilib aytganda, talaffuz so'zlarining ma'nosida nutq amalining tovush-talaffuz xususiyatlarini ko'rsatish birinchi planda bo'lsa, gapiruv fe'llarining ma'nosida bu amalning davomiyligini, kechish yo'suni, protsessual tomonini ko'rsatish birinchi planda bo'ladi.

Gapiruv fe'llaridan bir guruhining ma'nosida nutq jarayoni bilan bir qatorda nutq mazmuni ham tasvirlanishi yuqorida ko'rsatildi. Bunday fe'llarning o'ziga xos xususiyati shundan iborat bo'ladiki, nutq mazmuni to'g'risida ham ma'lum informatsiya ifodalanadi. Bunday fe'llarning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ularning ma'nosida nutq obyekti, nutq mazmuni to'g'risida ham ma'lum informatsiya ifodalanadi. Bunday birikmali fe'llar ma'lum obyekt, ma'lum hodisa to'g'risida gapirish, izoh berish, tushuncha, ma'lumot berish jarayonini beradi.

Ko'rinadiki, bunday fe'llarning ma'nosi nutq jarayoni bilan bir qatorda nutq obyekti haqidagi informatsiyani ham o'z ichiga oladi. Nutq jarayoni bilan birgalikda nutq mazmunini ham tasvirlaydigan fe'llarni quyidagicha guruhlash mumkin:

¹ Кўчқортоев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги. Тошкент. 1977, 109-114 бетлар.

Shular ichida bizga tegishli bo'lgah guruhi: ma'nosi hasrat arxisemasi bilan xarakterlanadigan gapiruv fe'l birikmalari yoki fe'llari:

Ma'nosi hasrat arxisemasi bilan xarakterlanadigan fe'llar guruhi hasrat qilmoq, nolish qilmoq, ko'z yosh qilmoq, dod-voy qilmoq, dard-u hasrat qilmoq, ko'z yosh to'kmoq, o'krab yubormoq, hasratlik yoshlar to'kmo, kabilardan iborat. Bu fe'llar frazeologik birikmalar biror-narsa-hodisa tog'risida norozi bo'lib gapirish amlini bajaradi. Bunda nutq agensining gapidan uning nutq adresanti o'ziga xayrixox bo'lishga da'vat etishi sezilib turadi: sizga ochib so'zlay g'azal rafiqam; go'yo manim bu maktubim sizning Komilbek uchun hasratlik yoshlar to'kkan o'tlik ohlar tortgan chog'ingizda erisharda unutilgan... ("O'tkan kunlar" 265 bet); negaki hozirda manim ko'z yoshlarimgina emas, butun borlig'im siyohdir.

II BOB 2-qism

Abdulla Qodiriy ijodi o'zbek badiiy prozasida o'ziga xos va original hodisa kanligi bilan ajralib turadi. Uning ijodida badiiy nutqning xilma-xilligida ko'rinadi. Ya'ni xalq jonli tilining elementlarini qo'llanilishi, muallif va personaj nutqini aralashuvi, muallifning persinaj "men"i bilan hikoya qilishdagi o'ziga xos ko'rinishlar o'sha davr prozasining muhim belgilariga aylandi. Badiiy nutqda adibning uslubi, mahorati ochiq namoyon bo'ladi.

Badiiy asar tili o'zbek adabiyotshunoslari tomonidan ham, tilshunoslari tomonidan ham tadqiq etib kelinmoqda. Biz esa Abdulla Qodiriy badiyatida tasavvurlanayotgan hayotiy voqealarga uning tiliga muallif va personajlar nutqiga ijtimoiy lisoniy nuqtai nazar bilan boqib, undagi muloqot xulqiga alohida o'rinlarni tahlil etishga va unda yig'i amalini ifodalovchi vositalarni tadqiq qilishga qaratdik.

Personajlar o'rtasidagi dialog konkret hayotiy situatsiyada kechishi tufayli birinchidan, hayotiy holatning hissiy bo'yoqdorligi dialog vositasida yanada boyitiladi; ikkinchidan, dialogning hissiy tanaligi hayotiy vaziyat hissiy fonida anglashiladi. Demak, epik asardagi tasvir predmeti bilan bog'liq emotsionallik bir-biriga bog'liq holda mavjud, ular bir-birini to'ldiradi va birgalikda asarni umumiy hissiy ma'nolarini tashkil qiladi. Bunda "yig'i" ifodalovchi lug'aviy frazeologik vosilar ham muhim ahamiyat kasb etadi, badiiy nutqning tarkibidagi personajlar nutqi va muallif-hikoyachi nutqining bir-biridan farqlanish xususiyatlarini aniqlash badiiy nutq uslubiyati fanining asosiy muammolaridan biri sanaladi. Mazkur farqlanish asosan, epik va liro-epik xarakterdagi asarlarga xosdir. Bu xil asarlarda voqea kechayotgan joy yoki sharoit tasviri, qahramonlarga berilayotgan ta'rif, muallifning fikr mulohazalari kabilarbevosita muallif tilidan beriladi. Muallif obrazi asarda tasvirlangan badiiyvoqeilikni yahlinlantiruvchi unsurdir. Muallif nutqi vositasida asar qisimlari, voqealari, tafsilotlar yaxlit bir organizmga –badiiy matnda birikadi. Muallif nutqi aramatik jihatidan adabiy til me'yoriga

yaqinlashadi, biroq uning adabiy til miyozlariga to'la muvofiq bo'lishini talab qilishlik xato bo'lur edi. Buni biz tahlil qilayotgan "O'tkan kunlar" romani tarkibidagi yig'I amalini ifodalovchi leksik-frazeologik birliklar tahlili ham ma'lum darajada tasdiqlash uchun xizmat qiladi. Zero, yozuvchi milliy til imkoniyatlarini kengaytirishiga, o'zining hissiy-kechinmalari, o'y-hislarini imkon qadar yorqin ifodalashga intilarkan adabiy tilnormalaridan chekinishi mumkin. va ayni shu chekinishlar vaqti kelib adabiy til normasiga aylanishi mukinligi ham ehtimoldan yiroq emas.

Personajlar nutqini individuallashtirish zarurati badiiy asar tilidagi differensiyalashganlikni yanada orttiradi. Chunki asardagi har bir personajning nutqi uning xarakter xususiyatlariga dunyoqarashi, muhiti, ma'naviy qiyofasi, madaniy-ma'rifiy darajasi kabi jihatlariga muvofiq bo'lishiga olib keladi. Chunki, epic va drammatik asarlarda qahramon xarakterining yaratishning asosiy vositalaridan biri personaj nutqi sanaladi¹.

Har qanday ijodkor tasvirlash uchun tanlagan voqealarni personajlarda gavdalantiradi. Voqelikni ochib berilishida ijodkor istaydimi-yo'qmi, o'zining va asarda ishtirok etayotgan personajlarning muloqot xalqini ifoda etadi. Chunki, ijodkor o'z yurtini bir ziyoli vakili bo'lib, uning uslubida ijtimoiy muhitning ta'siri albatta sezilib turadi.

Yosh bolaning tili o'zini qurshab turgan muhit ta'sirida rivojlanadi. Biz A.Qodiriyning "Toshkentda tug'ilib o'sganligini bilamiz. Adibning asarlari, til xususiyatlari, uslubi bilan boshqa yozuvchilardan farqlanib turadi. Shu qatorda adib asarlari personajlari nutqi ham ajralib turadi. Adib asarlaridagi voqealari Toshkent va Marg'ilon o'rtasida rivojlanadi. Shuning uchun ham asar personajlari nutqi va ularning muloqot xulqi leksik-fonetik jihatlar bilan yoritilib beriladi. Bu personajlar va muallif nutqidagi leksik birliklarning ishlatilishida, gap

¹ Курунов Д. Адабиётшуносликка кириш. Тошкент. 2004. 120-121 бетлар.

strukturasida, noverbal vositalarning qatnashishida, hamda frazeologik birliklarning ishlatilishida o'z ifodasini topgan.

Abdulla Qodiriyning “O'tkan kunlar” romanida yig'i holatini ifodalovchi so'z birikmalari va frazeologizmlar muallif nutqida qo'llanish xususiyatlarini ko'rib o'tamiz.

Adib romandagi muallif nutqi tarkibida qahramonlarning ichki ruhiy holatini, ularda kechayotgan g'am-alam, dard-stam, ko'z yosh to'kish orqali “yig'i” holatini emotsionalligini, frazemalardagi semantik-stilistik qarashlarni ko'rsatib o'tgan:

Asarda Kumushbibining uzatmoqchi bo'lishib, uning ko'nglida o'sha sirli Otabekni sevib qolgani va bu sovchilarning u tomonidan emasligini his qilgan Kumushni muallif shunday yig'latadi: Bu xabarni eshitkuchi Kumushbibining ko'zlari jiq yoshga to'lib, kipriklari yosh bilan belandilar. Keltirilgan matnda muallif nutqi tarkibida qo'llangan “ko'zlari jiq yoshga to'lib” ravishdosh birikmasi o'sha personaj Kumushbibining to'y oldidan kuchli his-hayajonini ifodalash vositasiga aylangan.

Ya'ni asarda avtor nutqi tarkibida Kumushni yig'latgan shunday ko'chma ma'nodagi birliklar qo'llangan: Ko'zlaridan oqqan marvarid tomchilarini ariq suvi bilan yuvdi, bir martagina yuvdi emas, qayta-qaytalab yuvdi. (“O'tkan kunlar” 50 bet). Bu muallif nutqida yig'latish holati ko'chma majoziy so'zlardan mohirona foydalanganini adib o'zbek tili adabiy nutq stilistikasini o'rinli qo'llagani seziladi.

Muallif nutqi persinajlarning ichk idunyosini, hatto ularning o'zlari ham izhor etib berolmaydigan ruhiy holatlarni tasvirlaydi¹. ...quloqlari ostida endigina aytilgan “Uyatsiz sizga mening uyumda o'rin yo'!” so'zining soddasi qanday bo'lsa ham unga bir haqiqatni ochiq so'zlar nafsida sezilgan xo'rlanish va hayajon

¹ И.Султон Адабиёт назаряси. Тошкент. 2005, 129 бет.

bilan tasdiqlar, bugina emas yuziga yopilgan darvozaning shildir-shildir qilib bog'langan zanjirini sadosi ham bu haqiqatni ta'kidlar edi.

Asarda personaj nutqi muallif nutqiga ham o'tib kelish holatlari ham bor. Muallif asarda eng jiddiy obraz yaratgan Yusufbek hojini ham asarda bir-ikki marotaba farzandlari dog'ida yig'latgan o'rinlari bor. Misol: Dunyo mojarosidan qo'l yuvmoqchi bo'lgan bir otag'a keksaygan kunlarimda farzand dog'ini ko'rmaslikning o'zi ham ulug' mukofotdir – dedi va ko'ziga yosh oldi (“O'tkan kunlar” 111-bet). Eng so'ng og'liga hujum qilgan bu falokatning tadbiridan aqli ojiz qoldi, miyasi ishlashdan to'xtadi va shundan so'ng – Parvardigor keksaygan kunlarimda farzand dog'ini ko'rsatma – dedi va ko'z yoshlari bilan soqolini yuvdi. (“O'tkan kunlar” 111-bet).

Muallif asarda jonsiz predmetlarning ham “yig'isini” ko'rsata olgan: Dutor bu ko'rinishni uning ko'z o'ngida keltirib to'xtatgach, bu fojiaga o'zi ham chidab turolmagandek yig'lay boshladi... Dutor quruqqina yig'lamas edi, balki butun koinotni zir titratib va xasta yuraklarni silkitib yig'latar edi... Adib bu yerda dator yig'latib va uni yig'isini eshitgan xasta yuraklar ham yig'laydi. Ijodkor bu yerda badiiy san'atlardan shaxslantirishdan ham ustalik bilan bog'langan.

Asarda Otabek qipchoq qirg'izni eshitib, otasining bu ishlarida qo'li bor deb o'ylab muallif uni shunday yig'latadi. Personaj va muallif nutqidan iborat gap. Misol: Siz dunyoda o'zingizni yagona dushmaningiz qilib qipchoni ko'rsangiz, men, men boshqa yovni har zamon o'z yaqinimg' yetkan ko'raman! –dedi va ro'moli bilan ko'z yoshisini artib o'rnidan turdi. (“O'tkan kunlar” 278 bet).

Asar yakunida ovoz o'qiguchi ham bu holatni o'qiyotganda o'z-o'zidan ko'ziga yosh keladi, hamda yig'laydi. “Shu o'rinda muallif ham o'z qo'llari bilan kumushni jon berish holatini tasvirlayotganda yig'lagan ekan” shu bilan bog'li voqealar muallif tilidan shunday bayon etilgan: Kumushning ko'z yoshlari

chakkasidan oqib tushdi... Hoji ham o'zini to'xtalmay Kumushning yoshini artib, boshini siladi:

–Xudo shifo berar, bolam! (“O'tkan kunlar” 376-bet).

II BOB

3-qism

3. Badiiy asarda turli-tuman persoonajlar qatnashar ekan, albatta, ularning har biriga xos nutq ham yaratilishi kerak. Bu nutq tipikligi va individualligi, obrazlilik bilan har bir shaxsning dunyoqarashini, tajribasini, xulq-atvorini, ma'naviyatini, salohiyatini, boringki, butun borlig'ini mubolag'ali va ishonchli qilib ochib berish – ko'rsatish lozim. Chunki har biro damning nutqida uning bo'yi basti (ruhiy kayfiyati, his-tuyg'ulari ham) aks etadi. Shuning uchun ham so'z xarakter ko'zgusi sanaladi¹.

“Personajlar nutqi asarda tasvirlanayotgan kishilarning o'zro suhbatlari o'ylari yoki bir-birlariga yozgan maktublarida yuzaga keladi. Personajlar nutqi jamiyatdagi xilma-xil tabaqa vakilarining obrazlarini yaratishga yordam beradi².

A.Qodiriy badiiy til vositalaridan o'rinli foydalangan biz buni quyida asarda yig'i holatini ifodalovchi lekik-frazeologik birliklarning personajlar nutqida qo'llanilishi orqali ham ishonch hosil qilish mumkin.

Taniqli adabiyotshunos, olim akademik I.Sultan aytib o'tganidek , personajlar nutqining xususiyatlari badiiy asar tarkibidagi maktublarda o'z ifodasini topgan. Unga bir misol Kumushning Otabekga yozgan xati: „Vafosizga men o'zimning bu maktubimni ko'z yoshlarim bilan yozaman. Negaki hozirda mening yolg'iz ko'z yoshlaimgina emas ,butun borlig'im siyohdur...” (“O'tkan kunlar” 165-bet). Bu xat matnida qo'llangan ko'z yoshlari siyoh bo'ldi birikmasi achchiq iztirobli yig'I ma'nosini bildiradi. A.Qodiriy romani ko'z yoshlari bilan arashib ketgan yig'isini Kumush holatida tasvirlagan.

Romanda ijodkor barcha personajlarning yig'i holatidagi tasvirini chizishga urungan shu o'rinda muallif va personaj nutqi aralashib ketgan holdagi yig'i holatini Usta Alin va Saodatning onasi yig'isida ko'ramiz: - Akangga har

¹ И.Султон Адабиёт назаряси. Тошкент. 2005, 129 бет.

² Умуров Х. Адабиётшунослик назаряси. Тошкент. 154-155 бетлар.

narsa qilsang arziydir qizim,- dedi kampir van a uchundir ko'ziga yosh oldi, men ham arang ko'z yoshini to'xtatib qoldim . (“O'tkan kunlar” 198-bet).

Kumushning onasiga yozgan oxirgi xatida Yusufbek xojining uyida chekayotgan quvonch va g'am-alami, sog'inchli maktubida u shunday yig'laydi: Ayniqsa, musofirchiligim yomon asa qildi. Ko'z yoshlarim bilan yuzimni yuvdim. («O'tkan kunlar” 366-bet).

Keltirilgan matnda ko'z yoshi bilan yuvmoq birikmasi personajning ya'ni Kumushning achchiq qismati, ruhiy kechinmalari tasviri uchun vosita vaziafasini bajargan.

Asarda kosib-hunarmand shu Usta Alimning yuborgan sovchisidan xush xabarni eshitgach shunday sevinch yoshlarini to'kib yig'lab yuborgan holat: Haqiqatdan so'zi chin ekan, Og'zidan o'pdim. Jiq to'lgan ko'z yoshimdan uyalib turmadim.

Romanning “Bizda kim ko'p yig'laydir” bobida bir juda ko'p yig'i holatini ifodalovchi leksik va frazeologik birikmalarni kuzatdik. Shu o'rinda Kumushbibining onasi bilan suhbatida komilbekka „rizolig'i” tasvirlangan yig'i holatini quyidagicha o'z aksini topgan: Sizning to'kib ketgan ko'z yoshlaringizning bir tomchisiga ham bu tashlandiq qizingiz arzimas, siz otamg'a rizolig'imni tashvishlanmay bildiraveringiz. (“O'tkan kunlar” 213-bet)....-Agar siz menga ortiq achinmasangiz, rizolig'imning bir sharti qilib to'yni kelasi kuzga bo'lib o'tishini aytib o'tingiz, Agar otam baxtsiz qizining bu tilagini qabul etsa-etsun, bo'lmasa manimbu tilagim ham sizning bir tomchi ko'z yoshlaringizga arzimas, onajon, sizning shodlig'ingiz yo'lida har bir og'riqlarga qizingiz rozidir, Onajon! (“O'tkan kunlar” 214-bet).

Bu tasvirlarda shu narsa ayon bo'ladiki, Kumush Otabekdan pфтгя umidini uzolmaganini bu xat matnida ko'z yoshiga arzimaslik birikmasi Otabekdan ko'nglini ololmagan, u bilan kelajakda baxtli yashab ketish umidida bo'lgan

Kumushbibining ruhiy kechinmalari o'z aksini topgan. Kumushbibini odobli, hayoli, es-xushli qiz shuning uchun o'zining qalban intilayotganini ochiqcha bayon etolmaydi, faqat onasiga yozgan xatida shunday ruhiy holat tasviriga ishora qiladi, xolos.

Asarda Otabekning Kumushbibiga yozgan xatida ya'ni Hamid o'limidan keyin yozgan maktubida Kumushni Komilbek vafotida yig'lagasiz deb gina qilgan holati: „Sizga ochib so'zlay go'zal rafiq'am go'yo manim bu maktubim sizning Komolbek uchun hasratlik yoshlar to'kkan, o'tlik ohlar topgan erisharda unutilgan...” (“O'tkan kunlar” 265-bet). Bu xat matnida Otabek o'z sevgilisiga o'tmish voqealarini eslatadi, Komilbek bilan bo'lgan munosabatlar xayolda tiklanganda “hasratlik yoshlar to'kmoq” birikmasi qo'llanadi. Bunday qo'llanish har ikki sevishgan qalblarning bir-biriga nisbatan gina qudratini ifodalash vositasiga aylangan.

Ijodkor yuqorida keltirgan xatda Kumushning sevinch yoshlarini ham aniq ko'rsata olgan (“O'tkan kunlar” 324-bet).

Misol: Zaynabning opasi Xushro'yibini xarakteridagi beshavqatligi singlisi Zaynabga ruhiy azob berish xislatlari uning faqat o'zining baxtli kunlari bilan qiyoslash orqali asarda tasvirlanadi. Uning zohiriy va botiniy dunyosidagi manashu holat uning atrofidagilarni beshavqat bo'lishiga undaydi. Xususan, Zaynabga shunday o'rgatadiki sening bir tomchi ko'z yosh to'kishiga undaganlar hayotini zaharga aylantir deb Zaynabni o'z erki uchun kurashga chorlaydi. Sening yeringda bo'lsam, bilasanmi? Nima qilar edim, Zaynab- dedi: Xushro'y, - dunyosini ost-ust qilar edim, bir tomchi yoshimni yuz tomchi zahar bilan qo'shib tashlar edim. («O'tkan kunlar” 363-bet).

Muallifning personaj “men” idagi nutqda leksik birliklarning qo'llanilishi gap strukturasida ham fazeologik iboralarning personaj nutqida ishlatilishi o'zbek tilining funksional uslublaridan o'rinli va mohirona foydalanganinikuzatadi.

Xullas, A.Qodiriyning “O’tgan kunlar” romanida avtor va personajlar nutqida o’zaro uyg’unlashuvi, hududiy o’ziga xosligi bilan ajralib turadi. Shuningdek A.Qodiriy asarlari qahramoni o’z tili, o’z uslubi bilan so’zlaydi va o’z g’oyasi, maqsadini bayon etadi.

ILOVA

- Yig'laydir; yig'lama; yig'laganingiz; yig'lama bekacham; – dedi To'ybeka, – biz bilamiz sizning ko'z yoshlaringiz nimaga ekanin; erlar suyunganda kulsalar, sizga o'xshahs qizlar yig'laydilar; siznin yig'laganingiz – quvong'aningiz... ("O'tkan kunlar" 49-bet).
- Yig'lag'anliqdan; ko'p yig'lag'anliqdan ko'zlari qizarg'an, qovoqlari shishgan, yuzlari bo'rtkan edi. ("O'tkan kunlar" 50-bet).
- Yig'laydi; Kumushingiz tun ham yig'laydi, kun ham, sababini so'rasam sir javob bermaydirda, do'lanadek, ko'z yoshini oqiza beradi. ("O'tkan kunlar" 51-bet).
- Yig'isinigina; Biladir – dedi oyim, uning bir jo'rtaiga buyovni maxtashimiz, lekin bu maxtovlarni eshitkusi kelmay qaytag'a yig'isinigina orttiradir. ("O'tkan kunlar" 52-bet).
- Yig'lab; Oftob oyimni yupatish uchun o'tkan ketgandan va boshda yig'lab erga tekkan qizlarning chimildiqda yigit bilan apoq-chapoq bo'lishib ketkanlaridan hikoya qildi. ("O'tkan kunlar" 52-bet).
- Yig'loq; Men bunday yig'loq qizlarning ko'pini ko'rdim. Shunday qizlarni uyalma-suyalmay chimildiqda hatto yigitdan ham orttirib harakat qilganlarini ham ko'rdim... ("O'tkan kunlar" 52-bet).
- Yig'i; Otabekning tasallo berishi bilan Hasanali undan qo'l tortdi ersa-da, biroq undan hayajon, yig'i hali ajramagan edi. ("O'tkan kunlar" 124-bet).
- "yig'larman"; Gulsin o'zining qo'ng'ioqdek tovushi bilan "yig'larman" kuyidan boshladi ("O'tkan kunlar" 55-bet).
- Nega yig'ladingiz –a? O'zim... dedi ("O'tkan kunlar" 56-bet).
- Qon yig'latgan; kun sayin necha gunohsizlarni osdirgan, kesdirgan, bolalarimizni yetim, onalarimizni qon yig'latgan sen emasmisan? ("O'tkan kunlar" 109-bet).

- Yig’ladi; yig’latibmanmi? Kim yig’latibdi sizni? Yig’latibmanmi? (“O’tkan kunlar” 151-bet).
- Yig’latadirlar; chunki marhuma saodat bilan kechirgan kunlarimning totli xotiralari menga abadiy lazzat bag’ishlaganlaridek ham achchiq-achchi yig’latadirlar. (“O’tkan kunlar” 203-bet).
- Yig’lashingizga; – yangliz so’zlaysiz onajon! – dedi Kumush va –siz dunyoda turushka loyiq edingiz, lekin sizni dunyodan toyishingizga va qon-qon yig’lashingizga sababchi men bo’ldim. (“O’tkan kunlar” 213-bet).
- Yig’lay boshladi; Dutor bu ko’rinishni uning ko’z o’ngiga keltirib to’xtatgach, bu fojiaga o’zi ham chidab turolmagandek yig’lay boshladi. (“O’tkan kunlar” 216-bet).
- Yig’lamas... yig’latar; Dutor quruqqina yig’lamas edi, balki butun koinotni zir titratib va xasta yuraklarni dir slkirib yig’lar edi... (“O’tkan kunlar” 216-bet).
- Yig’lag’n; Usta yig’lag’an holda Otabekni quchoqlab o’pdi-da, ayvonga ko’rpacha sola boshladi (“O’tkan kunlar” 254-bet).
- Yig’lab-sixtab; Endi Toshkandga kelmasin ul o’zboshimcha betiyuq! Deb baqirib-chqirib, yig’lab-sixtab dard-u hasratini boshiga kiyib oldi. (“O’tkan kunlar” 130-bet).
- Ho’ngir-ho’ngir yig’lamoq; Bo’lmag’ach, qovog’ini qo’msab, ho’ngir-ho’ngir yig’lab oldi. (“O’tkan kunlar” 153-bet).
- Yig’latish; ermakchilarning kutkani ham faqat uning yoshi mishig’iga, mishig’I tupug’iga qo’shilib yig’lashi edi. (“O’tkan kunlar” 153-bet).
- Yig’latish; Tashlandiq bu qizingiz qo’lma-qo’l yurguchi bu o’yunchiq qizingiz kim-u, sizdem bir mehribon onani qon yig’latish kim? Yig’lamangiz ona, (“O’tkan kunlar” 213-bet).
- Yig’lar; O’zbek oyim ham uni mahkam quchoqlab olg’an, yuzidan shop-shop o’pib aylanib, o’rgular va tikilib-tikilib nima uchundir yig’lar edi... (“O’tkan kunlar” 313-bet).

– Yig'lamoqqa; – nega kulasiz? – chunki yig'lamoqqa arzimaydir. (“O'tkan kunlar” 345-bet).

– Piq-piq yig'lamoq; Lavhani o'qib chiqqandan keyin ham ul piq-piq yig'lab oldi. (“O'tkan kunlar” 378-bet).

– Yig'lay-yig'lay; Ertasi kuni O'zbek oyim yig'lay-yig'lay Yodgorbek uchun tikdirgan kiyimlarini o'g'liga topshirdi. (“O'tkan kunlar” 379-bet).

– Yig'lama... yig'laydirlar, yig'lag'aningiz; – yig'lama bekachim – dedi To'ybeka bir bolamiz sizning ko'z yoshlaringiz nimaga ekanin; erlar suyunganda kulsalar sizga o'xshash qizlar yig'laydilar; sizning yig'laganingiz – quvong'aningiz... (“O'tkan kunlar” 49-bet).

– Yum-yum yig'lab; Kumushbibini daricha orqasidan hamma gapni eshitib olg'an va hissiyotini yum-yum yig'lab o'tkargan edi. (“O'tkan kunlar” 263-bet).

– Yig'lashdilar; Bu nogahoniy jazodan eslari chiqib ketkan bechoralar yig'lashdilar.. (“O'tkan kunlar” 291-bet).

– Yig'lag'usi; Oftob oyim bo'lsa, qizining qadrini bunchalik arshlarg'acha kotarmakka bo'lgan yigitka o'zida cheksiz muhabbat poyonsiz ehtirom sezmaida v anima uchundir yig'lag'usi va kuyovi yuzidan o'pkusi kelmakda edi. (“O'tkan kunlar” 149-bet).

– Bo'zlashdilar, yig'lashdilar; Ona-bola uzoq yig'lashdilar, ko'z yoshlari bitkuncha bo'zlashdilar. (“O'tkan kunlar” 213-bet).

– Yoshliq ko'z; Otabekning onasi – Otabek oyimning yoshliq ko'z bilan, seni xudoga, otamni senga topshirdim! – deb yo'l borishlari takrorlanganidek, bo'lur edilar (“O'tkan kunlar” 49-bet).

– Ko'zlari jiq yoshga to'lib; Bu xabarni eshitkuchi Kumushbibining ko'zlari jiq yoshga to'lub, kipriklari yosh bilan belandi. (“O'tkan kunlar” 49-bet).

– Ko'zlaridan oqqan marvarid tomchilari; Ko'zlaridan oqqan marvarid tomchilari shu sirlik ariq suvi bilan yuvdi; bir martabagina yuvdi emas, qaytalab-qaytalab yuvdi. (“O'tkan kunlar” 50-bet).

- Do'lonadek ko'z yoshlarini oqizaberadir; sababini so'rasam sira javob bermaydi-da do'lonadek ko'z yoshlarini oqizaberadir. ("O'tkan kunlar" 51-bet).
- Ikki ko'zi jiq yoshga to'lgan; Shu vaqtda kutilmagan joyda Kumushning ikki ko'zi jiq yoshga to'lgan edi. ("O'tkan kunlar" 55-bet).
- Ko'z yoshlarini oquzib; Ko'z yoshlarini oquzib, yangasining so'ziga quloq osmaydir. ("O'tkan kunlar" 59-bet).
- Ko'zlariga yosh oldilar; Ayoni shahar uning bu holiga chidab turolmay ko'zlariga yosh oldilar ("O'tkan kunlar" 153-bet).
- Mijoni ko'z yoshlari; Qarshisida: Fuzuliy ta'iricha sbi zonaxdoni negadir qizarib. Novaki mijgoni ko'z yoshlari bilan juftlangan haligi pari edi... ("O'tkan kunlar" 150-bet).
- Ko'ziga chiqqan yoshlari; Xotinining tirnoq ostidan kir izlab va da'vosining isboti uchun g'o'ldirashidan ortiqcha kulib kayflangan Yusufbek hoji ko'zg'a chiqqan yoshlarni artar ekan jiddiyat bilan og'lig'a dedi... ("O'tkan kunlar" 135-bet).
- Yomg'urdek ko'z yoshlari; anchagina bir-birlarig'a qarashib olg'ach Oftoboyim olg'an taassurotlarini ichiga yuta berishka chidolmadida yomg'urdek ko'z yoshini to'ka berdi. ("O'tkan kunlar" 187-bet).
- Ko'zini xo'rlik pardasi bilan yashirishga; ... to'lqinlang'an izzati, nafi hamisha "qona ohu ko'zlarini" ko'rishka 'rganmish yurak ko'zini xo'rlik pardasi bilan yashirishga majbur bo'ldi. ("O'tkan kunlar" 187-bet).
- Yosh bilan sing'an; sham qarshisida qizarg'an shahlo ko'zlari yosh bilan sing'an jingala kipriklari chimirilg'an toshdek qora qoshlari uni allaqanday bir holg'a qo'yg'an edilar. ("O'tkan kunlar" 264-bet).
- Hasratlik yoshlar to'kan; sizga ochib so'zlar, go'zal rafiqam go'yo manim bu maktubim sizning Komilbek uchun hasratlik yoshlar to'kkan o'tlik ohlar tortkan, chog'ingizg'a erisharda unutilg'an... ("O'tkan kunlar" 265-bet).

– Ko’zini to’ldirib; chunki men faqat shuning uchun sizdan o’pkalamayman – dedi va ko’zini to’ldirib Otabekka qaradi (“O’tkan kunlar” 309-bet).

– Ko’zida bir turlik qiltirash; Kumushning ko’zuda bir turlik qiltirash bor edi... (“O’tkan kunlar” 343-bet).

– Ko’z yoshlarim; Vafosizga Men o’zimning bu maktubimni ko’z yoshlarim bilan yozaman. (“O’tkan kunlar” 165-bet).

– Ko’z yoshini duv-duv to’kib; Ko’z yoshini duv-duv to’kib, xatni o’z taxig’a soldi va o’zidan javob kutib turg’an achasi va onasiga dedi... (“O’tkan kunlar” 212-bet).

– Ko’z yoshig’a ko’mildilar; Oftob oyim Kumushning bu so’zlarig’a to’zib turolmay qizini bag’riga bosib quchoqladi, ona-bla tag’in shiddatlik ravishda ko’z yoshig’a ko’mildilar.

– Yosh bilan to’kkan edi; Hozirgi eng kichik hissiyotning a’lo ifodachisi bo’lgan yosh bila to’kkan edi. (“O’tkan kunlar” 251-bet).

– Ko’z yoshini to’kdi; Zaynab so’zini bitira olmadi, chetga qarab ko’z yoshisini to’kdi (“O’tkan kunlar” 309-bet).

– Ko’zlaridan yoshlar oqmoqda; Azizbekning salomig’a musharraf bo’lg’uchilarning ko’zlaridan yoshlar oqmoqda edi. (“O’tkan kunlar” 35-bet).

– Ko’zyoshisini quritdi; Kumushbibi o’zi ustiga duv yig’ilgan qizlarg’a ko’zini ochib qaradi-da, hushyor tortganlardek bir harakat qilib qo’ydi va tez-tez cho’ntagidan ro’molini olib ko’zyoshisini quritdi. (“O’tkan kunlar” 56-bet).

– O’krab yubordi; Biz endi shunday qolaberamizmi? Agar zolimlar... – dedi-da, Kumush so’zining oxirini aytolmay o’krab yubordi (“O’tkan kunlar” 77-bet).

– Ko’z yoshlari bilan soqolini yuvdi; ... Shundan so’zng – Parvardigor keksaygan kunlarimda farzand dog’ini ko’rsatma, – dedi va ko’z yoshlari bilan soqolini yuvdi (“O’tkan kunlar” 89-bet).

– Bir tomchi yoshimni yuz tomchi zahar bilan qo’shib; – sening yeringda bo’lsam bilasanmi nima qilar edim. Zaynab – dedi Xushro’y – dunyosini ost-ust qilar edim, bir tomchi yoshimni yuz tomchi ahar bilan qo’shib tashlae edim. (“O’tkan kunlar” 363-bet).

– Uvvos tortdi; Bechora ona chidolmadi, qabrini quchoqlab uvvos tortdi. (“O’tkan kunlar” 378-bet).

– O’qchib yoshlang’an ko’zlari; Achib yoshlang’an ko’zlari bilan eriga qarab oldi. (“O’tkan kunlar” 374-bet).

– Ko’zim yoshlig’; Ayo charx etding ortuq jabru bunyod, ko’zum yoshlug’ tilimda qoldi faryod. (“O’tkan kunlar” 378-bet).

